

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

“BUXGALTERIYA HISOBİ VA AUDIT” FAKULTETI

«Bitiruv malakaviy ishi
himoyaga tavsiya etildi»
“Davlat moliyasi va soliqlar” kafedrası
mudiri, i.f.n., dots. S.Xudoyqulov

«_____» _____ 2014 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**MAVZU: “QISHLOQ XO'JALIGI TOVARLARI ISHLAB
CHIQUARUVCHILARINI SOLIQUQA TORTISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI”**

BAJARDI: “Buxgalteriya hisobi va audit”
fakulteti «Soliqlar va soliqqa tortish»
yo'nalishining 4-kurs talabasi Raxmatov
Elshod Baxtiyarovich _____

ILMIY RAHBAR: i.f.n., dots. Qurbonov
X.A. _____

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I.BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.....	7
1.1. Qishloq xo'jaligining mlliy iqtisodiyotdagi tutgan o'rni va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatining zarurligi.....	7
1.2. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortishning maqsadi va vazifalari.....	16
1.3. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan er solig'i va yagna er solig'ining o'ziga xos xususiyatlari.....	21
1-bob bo'yicha xulosalar.....	25
II.BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TOVARLARI ISHLAB CHIQUVCHILARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATINI TAHLILI.....	27
2.1. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortishning amaldagi holatini tahlili.....	27
2.2. Qishloq xo'jaligi korxonlaridan undiriladigan er solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.....	33
2.3. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan undiriladigan yagona er solig'ini hisoblash byudjetga to'lash tartibi.....	42
2-bob bo'yicha xulosalar.....	53
III.BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TOVARLARI ISHLAB CHIQUVCHILARNI SOLIQQA TORTISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	56
3.1. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari.....	56
3.2. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo'llari.....	61
3-bob bo'yicha xulosalar.....	68
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	70
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXAT.....	75

KIRISH

Tadqiqot mavzusining dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasida kuzatilayotgan makroiqtisdiy barqarorlik va izchil o'sish sur'atlarini ta'milashda qishloq xo'jaligi alohida ahamiyat kasb etadi. Qishloq xo'jaligi – O'zbekiston iqtisodiyotining muhim tarmog'i hisoblanadi. Bu tarmoq mamlakat aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga, qayta ishlash sanoati tarmoqlarining esa xomashyoga bo'lgan talabini qondiradi. Oziq-ovqat mahsulotlarining 90 foizga yaqini agrar tarmoqda tayyorlanadi. Qishloq xo'jaligi respublikamizning iste'mol bozoriga oziq-ovqat mahsulotlari va qayta ishlash sanoatiga xomashyo etkazib berish bilan birga, qishloq xo'jaligi mashinasozligi, kimyo sanoati kabi bir qator tarmoqlar mahsulotlari uchun kafolatli bozor bo'lib ham hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezidentimiz Islom Karimovning tashabbusi va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi. Bu boradagi malaga oshirilgan ishlarga alohida to'xtalib, Prezidentimiz Islom Karimov quyidagi fikrlarni aytib o'tgan edilar, “Qishloq xo'jaligining o'zida keng ko'lamli o'zgarishlar va sifat jihatdan yangilanishlar yuz bermoqda. Yurtimizda ekin maydonlarini optimallashtirish va qishloq xo'jaligi ekinlarini rayonlashtirish borasida har tomonlama puxta o'ylangan siyosat olib borilayotgani eng muhim xomashyo va eksportbop mahsulot bo'lmish paxta etishtirishning nisbatan barqaror hajmini saqlagan holda, boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirishni bir necha barobar ko'paytirish imkonini berdi. Eng muhimi, xalqimizni oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'liq ta'minlashga zamin tug'dirdi, kerak bo'lsa, ularni chet mamlakatlarga eksport qilishga imkon bermoqda.”¹.

Yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida sohadagi ishlab chiqarish munosabatlarini modernizatsiyalash yoki intensivlashtirish va o'ziga xos ravishda diversifikatsiyalash bo'yicha ham natijalarga erishilmoqda. Ushbu natijalarga

¹ Каримов И.А. 2014 йил юкори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади» - “Халқ сўзи” газетаси. 2014 йил 18 январь, № 13 (5687).

erishishda davlat tomonidan moliya-kredit va soliq mexanizmi orqali raqbatlantirish siyosati ham muhim rol o'ynamoqda.

Hozirgi kunda qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvilarni soliqqa tortish tizimida imtiyozli soliqqa tortish siyosati ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu imtiyoz va qulayliklar tarmoqning rivojlanishida muhim fiskal omil bo'lib xizmat qilmoqda. Shu bilan bir qatorda qishloq xo'aligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar uchun yaratilayotgan moliyaviy qulayliklar va soliq imtiyozlariga qaramasdan tarmoqda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlarining moliyaviy ahvoli bilan bog'liq muammolar mavjud bo'lmoqda. Bunga ta'sir etuvchi omillarga to'xtalib, muhtaram prezidentimiz quyidagi fikrlarni aytib o'tdilar, "Biz hanuzgacha eskicha fikrlash qolipidan chiqa olmayapmiz, o'z umrini o'tab bo'lgan, eski va yaroqsiz planli-taqsimot tizimi qoldiqlari, afsuski, butunlay barham topgani yo'q. Keskin raqobat sharoitida soliq imtiyozlari va proteksionistik choralar hisobidan yashash mumkin, degan noto'g'ri qarash miyamizga chuqur o'rnashib qolgan"².

Yuqoridagi holatlar barcha tarmoqlar kabi, qishloq xo'jaligida ham kuzatilayotgani shubhasizdir. Shuni inbatga olgan holda qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimini yanada takomillashtirish, ular uchun yaratilgan imtiyoz va preferentsiyalardan foydalanish samaradorligini baholash dolzarb ahamiyat kasb etuvchi mavzulardan biri hisoblanadi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Soliq tizimidagi qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining nazariy va amaliy jihatlarini qator xorijlik iqtisodchi olimlardan L.A.Drobozina, D.G.Chernik, N.K.Kuchukova, L.P.Pavlova, G.P.Polyak, M.V.Romanovskiy, B.M.Sabanti va boshqalarning ishlarida keng yoritilgan.

O'zbekistonlik iqtisodchi olimlaridan M.I.Alimardonov, T.S.Malikov, A.V.Vahobov, E.F.Gadoev, O.O.Olimjonov, A.Q.Qodirov, Q.Yax'yoev, B.E.Toshmurodova, A.M.Jumanov, A.Jo'raev, Sh. Toshmatov, N.X.Xaydarov, S.K.Xudoyqulov, N.Qo'zieva, A.Adizov, X.A.Qurbonov va boshqalar O'zbekiston

² Каримов И.А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оқлаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади» - «Халқ сўзи» газетаси. 2014 йил 18 январь, № 13 (5687).

Respublikasida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining ilmiy-nazariy va amaliy asoslarini tadqiq etishga o'zlarining muhim hissalarini qo'shib kelmoqdalar.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadi. Iqtisodiyotni modernizatsiyalashning hozirgi sharoitida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining ilmiy-nazariy jihatdan tadqiq etish, amaldagi soliqqa tortish tizimini tanqidiy baholash natijasida uni yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iboratdir.

Bitiruv malakaviy ishining asosiy vazifalari. Bitiruv malakaviy ishida belgilab olingan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar amalga oshirish ko'zda tutilgan:

- respublikamizda agrar sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning milliy iqtisodiyotimizdagi ahamiyatini yoritib berish va ularni soliqqa tortish tizimining tarmoq taraqqiyotidagi o'rnini asoslash;

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortishning maqsadi, vazifalari va tamoyillarini tadqiq etish;

- hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining amaldagi holatini tahlili qilish;

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimidagi mavjud muammolarni aniqlash;

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortishdagi mavjud imtiyozlarni yanada takomillashtirish bo'yicha fikr mulohazalar hamda tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti va predmeti. Bitiruv malakaviy ishining ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi davlat soliq qo'mitasi va Yangiyo'l tumani Davlat soliq inspeksiyasi amaliy ma'lumotlari bazasidan foydalanildi. Tadqiqotning predmeti bo'lib, jismoniy shaxslarni soliqqa tortish jarayonida vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiyoti va uslubiy asoslari. Ilmiy tadqiqot olib borish jarayonida guruhlash, taqqoslash, muammoga mantiqiy yondashuv, statistik kuzatish kabi usullardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining uslubiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining sohadagi islohotlarga oid ilmiy asarlari, Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, Davlat Soliq Qo'mitasining me'yoriy hujjatlari va xususan, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortishning nazariy va uslubiy asosiga oid xorijlik va respublikamiz iqtisodchi olimlarining ilmiy asarlari maydonga chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishida hozirgi iqtisodiy islohotlar sharoitida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimidagi mavjud muammolarni yoritilishi va ushbu muammolarni hal qilishga yo'naltirilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi. Bular quyidagilarda yaqqolroq namoyon bo'ladi:

- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimidagi yangi vazifalar aniqlandi va ular asoslandi;
- qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undirilgan soliqlarning davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishdagi o'rni va hissasi asoslandi va uni ko'paytirish yo'nalishlari ishlab chiqildi;
- yagona er solig'i mexanizmini takomillashtirish nuqtai-nazardan taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi

Bitiruv malakaviy ishi natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijasida olingan mulohazalar amaliy tavsiyalar va ilmiy takliflar shaklida keltirilganki, ulardan O'zbekiston Respublikasi Davlat Soliq qo'mitasi va uning quyi organlari faoliyatida foydalanish hozirgi iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida soliq tizimiga qo'yilgan vazifalarning samarali ijrosini ta'minlashda muhim iqtisodiy omillardan biri bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibiy tuzilishi. Bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati kabi tarkibiy qismlardan iborat.

I.BOB. QISHLOQ XO'JALIGINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI TUTGAN O'RNI VA ULARNI SOLIQQA TORTISHNING ILMIY- NAZARIY ASOSLARI.

1.1. Qishloq xo'jaligining mlliy iqtisodiyotdagi tutgan o'rni va uni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash siyosatining zarurligi.

Qishloq xo'jaligi dunyo mamlakatlarining asosiy qismida, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Prezidentimiz I.A.Karimov: «...qishloqda tub islohotlar o'tkazish, qishloq xo'jaligini taraqqiy qildirish, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning asosiy omili va manbaidir»³ - deb bejiz ta'kidlamaganlar. Qishloq xo'jaligida insoniyat hayoti uchun eng zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlari va keng iste'mol buyumlari ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari uchun xom ashyo ishlab chiqariladi. Hozirgi paytda aholi iste'mol buyumlarining to'rtidan uch qismi bevosita qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan yoki ulardan tayyorlangan oziq-ovqat, kiyim-kechak va boshqa buyumlardan iboratdir.


2013 yilda mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17,5 foizi qishloq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keldi. Agrar tarmoq respublikamiz aholisining salmoqli qismini ish o'rinlari bilan ta'minlab kelmoqda. Shu jihatdan qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.

Mustaqillik yillarida muhtaram Prezidentimizning tashabbuslari va bevosita rahnomoligida qishloq xo'jaligini isloh qilish bo'yicha juda katta va arzigulik ishlar amalga oshirildi. Ishlab chiqarishga fan-texnika yutuqlarini, yangi texnikalarni va ilg'or texnologiyalarni joriy etish ishlari yildan-yilga jadallashib bormoqda. Cheklangan er va suv resurslaridan, kapitaldan va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi yuksalmoqda.

Mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8 foizga o'sdi, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 8,8 foizga, qishloq xo'jaligi – 6,8 foizga, chakana savdo

³ Каримов И.А. Бунёдкорлик - фаровон ҳаёт асоси: Ўз.Р Олий мажлисининг IV сессиясида сызланган нутқи. 1995 йил 21 декабр.-Т.: «Ўзбекистон», 1995, 14-бет.

aylanmasi – 14,8 foizga oshdi. Inflyatsiya darajasi prognoz ko'rsatkichidan past bo'ldi va 6,8 foizni tashkil etdi.



1.1-rasm. Respublikada qishloq xo'jaligi rivojlanishining asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari, (% da)

O'tgan 2005-2012 yillar oralig'ida qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari o'sib borish dinamikasiga ega bo'ldi. Xususan, bu ko'rsatkich 2005 yildagi 105,4 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilda 107,0 %ga teng bo'ldi. Mamlakat yalpi ichki mahsulotida qishloq xo'jaligi yalpi mahsuloti salmog'ining 2005 yildagi 26,3 % dan 2012 yilda 17,5 % ga pasayishi ijobiy holdir. Bu holat mamlakat iqtisodiyotida industrial sanoat tarmoqlari va xizmatlarning jadal rivojlanib borayotganligi bilan izohlanadi.

Mamlakatimiz oziq-ovqat xavfsizligining asosiy tayanchi bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini oshirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Xususan, ekin maydonlari tarkibini optimallashtirish, ishlab chiqarishga yangi va ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ekin navlari va chorva mollari zotini yaxshilash, urug'chilik-selektsiya ishlarini tubdan yaxshilash borasida keng qamrovli, shu bilan birga puxta o'ylangan ishlar amalga oshirildi.

Amalga oshirilgan ishlar samarasi o'laroq, 1990-2011 yillar oralig'ida don etishtirish 3,7 barobarga yaqin, kartoshka 5 barobar, sabzavot 2,2 barobardan ortiq, meva 2,6 barobarga, uzum 1,3 barobardan ortiq, go'sht (tirik vaznda) 1,9

barobarga, sut 2 barobardan ortiq va tuxum ishlab chiqarish 2,4 barobardan ko'proq oshganligi fikrimizni dalili sifatida yuzaga chiqadi.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining oshishi faqat ekin maydonlarini kengaytirish evaziga emas, balki asosan intensiv rivojlanish, ya'ni ekinlar hosildorligi va chorva mollari mahsuldorligini oshirish evaziga ta'minlanmoqda.

1.1-jadval

O'zbekistonda aholi jon boshiga asosiy turdagi qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish dinamikasi, kg

Mahsulotlar turi	Me'yor bo'yicha, kg	Haqiqatda, kg		1991 yilda me'yorga nisbatan, %da	2013 yilda	
		1991 yilda	2013 yilda		me'yorga nisbatan, %da	1991 yilga nisbatan, %da
Meva	56,4	24,0	67,5	42,6	119,7	281,2
Uzum	25,6	24,0	40,0	93,8	156,3	166,7
Sabzavot	113,0	138,6	259,0	122,6	229,2	186,9
Kartoshka	50,6	15,1	68,5	29,8	135,4	453,6
Poliz	19,3	39,0	47,3	202,1	245,1	121,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi ma'lumotlari.

O'zbekiston Respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining ma'lumotlariga qaraganda 1990 yilda respublikamiz aholisi iste'moli uchun zarur bo'lgan g'allaning 82 foizi, go'sht mahsulotlarining 50 foizi, sut va sut mahsulotlarining 60 foizga yaqini, kartoshkaning 50 foizi, shakar va quruq sutning barchasi chetdan keltirilgan bo'lsa, hozirda mamlakatimizda oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishning barqarorligi hisobiga aholining asosiy iste'mol ma'sulotlariga bo'lgan ehtiyoji deyarli to'liq o'z ishlab chiqarishimiz hisobidan ta'minlanmoqda. Jumladan, agar 1991 yilda aholi jon boshiga hisoblaganda me'rga nisbatan etishtirilgan mahsulot hajmi mevada 42,6 %ni, uzumda 93,8 %ni, kartoshkada 29,8 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2012 yilga kelib bu ko'rsatkich mevada 119,7 %ni, uzumda 156,3 %ni, sabzavotda 229,2 %ni, kartoshkada 135,4 %ni va polizda 245,1 ni tashkil etdi. 2012 yilda 1991 yilga nisbatan meva ishlab chiqarish hajmi 281,2 %ga, uzum 166,7 %ga, sabzavot 186,9 %ga va kartoshka 453,6 %ga oshganligi bu borada salmoqli ishlar amalga oshirilganini tasdiqlaydi.

Mustaqillik yillarida agrar sohada bosqichma-bosqich olib borilgan izchil islohotlar tufayli respublikamizda asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini iste'mol qilish miqdori ham barqaror o'sib bormoqda. Jumladan, 2012 yilda aholi jon boshiga go'sht ishlab chiqarish (so'yilgan vaznda) 36,7 kg.ni (talabga nisbatan 91,8 %), sut 247,5 kg.ni (talabga nisbatan 176,8 %), tuxum 131 donani (talabga nisbatan 108,4 %) tashkil etdi.

Respublikamiz qishloq xo'jaligida bosqichma-bosqich amalga oshirib borilayotgan iqtisodiy islohotlarning borishini tahlil etish asosida ularning quyidagi asosiy yo'nalishlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- mulkiy va tarkibiy islohotlar;
- erdan foydalanish munosabatlaridagi islohotlar;
- suv va suvdan foydalanish munosabatlaridagi islohotlar;
- moliya-kredit, soliq va sug'urta sohasidagi islohotlar;
- narx-navo tizimidagi islohotlar.

Agrar sohada amalga oshirilgan tub iqtisodiy islohotlar natijasida quyidagilarga erishildi:

- davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish tadbirlari natijasida turli mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllari yuzaga keldi;

- qishloq mehnatkashlarining er, mulk va o'zi etishtirgan mahsulotga egalik qilishini kafolatlovchi iqtisodiy hamda huquqiy asoslar yaratildi;

- qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlari etishtiruvchi xo'jalik sub'ektlarini davlat tomonidan iqtisodiy qo'llab-quvvatlashning bozor munosabatlariga mos mexanizmlari amaliyotga joriy qilindi;

- respublikamiz aholisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabini ichki imkoniyatlar hisobiga qondirish, eng asosiysi, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga erishildi;

- qishloq xo'jaligi tovar mahsulotlari ishlab chiqaruvchi xo'jalik sub'ektlarini moliyalashtirish, kreditlash, narx belgilash, moddiy-texnika ta'minoti va boshqa yo'nalishlarda bozor tamoyillariga mos mexanizmlar joriy qilindi;

- agrar sohada ustuvor yo'nalish sifatida fermer xo'jaliklarini rivojlantirish strategik jihatdan samarali yo'l deb belgilandi.

Respublikamizda qishloq xo'jaligi korxonalarining samarali faoliyat yuritishi va rivojlanib borishi ko'p jihatdan ular uchun yaratilgan shart-sharoitlarga bog'liq bo'ladi. Bu shart-sharoitlar ichida qulay moliya-kredit va soliq mexanizmlarini shakllantirish muhim o'rin tutadi. Islohotlar davomida fermer xo'jaliklarini moliya-kredit va soliq mexanizmlari orqali qo'llab-quvvatlashning samarali tizimiga asos solindi:

- davlat ehtiyoji uchun harid qilinadigan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtiruvchi fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yo'lga qo'yildi;

- fermer xo'jaliklari uchun erlarning unumdorligiga bog'liq bo'lgan yagona er solig'i to'lash bo'yicha imtiyozlar joriy etildi;

- fermerlarga texnika vositalarini imtiyozli shartlarda lizing asosida etkazib berish tartibi joriy etildi;

- fermer xo'jaliklari uchun imtiyozli kreditlash tizimi yaratildi;

- ball-boniteti past erlarda paxta va g'alla etishtiradigan fermer xo'jaliklarining zararini qoplash maqsadida ularga moliyaviy yordam berish tizimi joriy etildi;

- irrigatsiya va melioratsiya tizimini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash amaliyotga joriy etildi.

Agrar sohada amalga oshirilayotgan **narx islohoti** qishloq xo'jaligi mahsulotlariga narx belgilashda erkin bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich joriy etishga yo'naltirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2002 yil 20 avgustdagi «Paxta narxini shakllantirish mexanizmi to'g'risida»gi PF-3114-sonli farmoniga asosan davlat tomonidan sotib olinayotgan paxta xom ashyosining narxini jahon bozoridagi narxlar darajasidan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 29 dekabrdagi PQ-1024-sonli qaroriga muvofiq 2009 yilda davlat byudjeti parametrlarida eksportga sotiladigan paxta tolasi bo'yicha 20 foizli qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) to'lashdan paxta tozalash korxonalari ozod etildi, natijada

shu miqdorda fermerlarga paxta uchun to'lanadigan harid narxlari ko'tarildi. Shu orqali davlatimiz tomonidan paxta etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini va tayyorlov korxonalarini rag'batlantirish ko'zda tutilgan bo'lib, paxta tolasining ichki narxlarini jahon bozoridagi narxlarga tenglashtirish choralari ko'rilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 30-dekabrda PQ-1675-son Qaroriga asosan paxta tolasini sotishning ichki va amaldagi narxlari o'rtasidagi ijobiy tafovutdan tushayotgan mablag'larning 25 foizini fermer xo'jaliklariga to'lab berish bo'yicha tegishli tadbirlar amalga oshirilmogda. Jumladan, 2012 yil davomida fermer xo'jaliklariga yo'naltirilgan ijobiy farq summasi 218 627,0 mln. so'mni tashkil etdi. Bu holat jahon bozorida qulay kon'yuktura vujudga kelgan yillarda fermer xo'jaliklarining barqaror daromad olishlari uchun imkoniyatlar ochadi.

Davlat tomonidan sotib olinayotgan g'alla narxlarini esa mintaqaviy bozorlardagi narxlardan kelib chiqqan holda belgilash tizimi joriy etilgan. Boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini narxlari bozordagi talab va taklifdan kelib chiqqan holda shartnoma asosida belgilanadi.

Keyingi yillarda fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish maqsadida hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun mablag'lar ajratish amaliyotda qo'llanmogda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 5 noyabrda PQ-725-sonli "Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyoji uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtirayotgan fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorida fermer xo'jaliklarini barqaror rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ularga samarali va amaliy davlat madadini ko'rsatish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetida hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun maqsadli mablag'lar ajratish, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligiga har yili Davlat byudjeti


loyihasini shakllantirishda mazkur maqsadlarga er solig'i bo'yicha tushumlar hisobidan mablag'lar ajratish vazifasi belgilab berilgan edi.

“Hosildorligi past bo'lgan erlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xom ashyosini etishtiruvchi qishloq xo'jaligi korxonlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash tartibi to'g'risida”gi Nizomga asosan ushbu maqsadlarga ajratiladigan byudjet mablag'lari:

- fermer xo'jaliklarining byudjetga va byudjetdan tashqari jamg'armalarga to'lovlar bo'yicha qarzдорlikni, bank kreditlari va ish xaqi, shuningdek paxta xom ashyosi etishtirish uchun sotib olingan moddiy-texnika resurslari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun qarzlarini to'lashga;

- kelgusi yil hosili uchun sotib olinadigan resurslar va ko'rsatiladigan xizmatlar uchun oldindan to'lovlarga;

- erlarni meliorativ holatini yaxshilash tadbirlarini va xo'jalikning ishlab chiqarish faoliyati bilan bog'liq boshqa xarajatlarini moliyalashtirishga yo'naltiriladi.



1.2.-rasm. Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi fermer xo'jaliklariga davlat byudjetidan ajratilayotgan subsidiyalar qiymati, mlrd. so'mda

Hosildorligi past erlarda davlat ehtiyojlari uchun paxta xomashyosi etishtirish bilan shug'ullanayotgan fermer xo'jaliklarini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar qiymati 2008 yilda 60 mlrd. so'mdan

2013 yilda esa 200 mlrd. so'mgacha yoki 333,3 % ga oshdi. 2008-2013 yillar oralig'ida bu maqsadlar uchun ajratilgan jami mablag'lar qiymati 810 mlrd. so'mni tashkil etdi va bu fermer xo'jaliklarining moliyaviy ahvolini yaxshilashga muhim hissa qo'shdi.

Ushbu mablag'lar fermerlarning xizmat ko'rsatuvchi va ta'minotchi tashkilotlar oldidagi qarzlarini qisqartirishda salmoqli manba bo'lmoqda.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligini modernizatsiyalash orqali tarmoqni rivojlantirishning istiqbolli yo'nalishlari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ishlab chiqilgan "Demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" da bayon etilgan. Ushbu kontseptsiyada belgilab berilgan ustivor vazifalardan kelib chiqib, O'zbekiston respublikasi Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tomonidan ishlab chiqilgan dasturda 2011-2015 yillar mobaynida:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 marta oshirish, uning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushini 17,5 foizdan 13,5 foizga pasaytirish;
- qishloq xo'jaligida ilg'or agrotexnologiyalar, resurs tejoychi usullarni joriy etish, selektsiya va urug'chilik tizimini rivojlantirish hisobiga, ekinlar hosildorligini oshirishga erishiladi. Bunda mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini 15 foizga oshirish, suv sarfini 12 foizga kamaytirish;
- meva-sabzavot tayyorlashni 1,5 barobarga, kartoshka etishtirishni 1,4 barobarga, poliz va uzumni 1,3 barobarga ko'paytirish;
- naslchilik ishlarini takomillashtirish, oziqa bazasini mustahkamlash, zamonaviy texnologiyalar va modernizatsiyalash natijasida naslchilik xo'jaliklari sonini 2,5 barobarga, ozuqa ekinlari maydonini 1,3 barobarga oshirish;
- zooveterinariya punktlarini zamonaviy jihozlash, xizmatlar sifatini oshirish hisobiga chorva mollari bosh sonini 1,3 barobarga, go'sht va sut mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 1,3 martaga oshirish;

- parrandachilik va baliqchilik tarmoqlari rivojiga alohida ahamiyat qaratilib, parrandalar bosh sonini 1,8 marta oshirib, 670 ta baliqchilik xo'jaliklari tashkil etish;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini saqlash quvvatlarini va qayta ishlash hajmini kengaytirish tadbirlari doirasida qishloqlarda zamonaviy minitexnologiyalar negizida qayta ishlash korxonalarini ishga tushirish orqali meva-sabzavot konservalari ishlab chiqarishni -1,7 barobarga, go'sht konservalarini -2,2 barobarga, kolbasa mahsulotlarini -1,8 barobarga, sut mahsulotlarini -1,9 barobarga oshirish;

- sug'oriladigan erlarning meliorativ holatini yaxshilash jamg'armasi mablag'lari hisobidan meliorativ inshootlarni qurish, rekonstruktsiya qilish va ta'mirlash, tomchilatib sug'orish tizimini yo'lga qo'yish va melioratsiya texnikalarini harid qilish bo'yicha qariyb 500 million dollarga teng bo'lgan loyihalar hisobiga 1,4 million gektar er maydoni meliorativ holatini yaxshilash;

- qishloq xo'jaligi texnikasi parklarini kengaytirish, ularni sifat jihatdan yangilash, fermerlarni unumli qishloq xo'jalik texnikalari bilan ta'minlash, xizmat sifatini yaxshilash kabi strategik ahamiyatga ega bo'lgan muhim prognoz vazifalari belgilangan.

Soliqqa tortish va soliq to'lash mexanizmini soddalashtirish maqsadida Respublika Prezidentining Farmoni bilan, fermer xo'jaliklari tomonidan to'lanadigan to'qqizta soliq turi o'rniga 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi korxonalari uchun yagona er solig'i joriy qilingan bo'lib, u har tomonlama qulaylikka ega. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida qishloq xo'jaligi sohasida bir qator soliq va bojxona imtiyozlari qo'llaniladi:

- yangidan tashkil etilgan paxta, g'alla, sabzavot, poliz, kartoshka va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish fermer xo'jaliklariga 2 yil muddatga, bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari 5 yil muddatga yagona er solig'i to'lashdan ozod etilgan;

- fermer loyiha asosida o'z hisobidan o'zlashtirgan er uchun besh yil davomida yagona er solig'i to'lashdan ozod qilindi;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 17 martdagi 304-sonli qaroriga asosan chet el texnikalari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i va bojxona to'lovlari, hamda chet el texnikalari uchun ehtiyot qismlar olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'idan ozod etilgan;

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 martdagi 308-sonli qaroriga muvofiq chet ellardan chorva mollari olib kelishda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovlaridan ozod etilgan.

Fermer xo'jaliklari texnika vositalarini imtiyozli shartlarda lizing asosida harid qilishi uchun texnika boshlang'ich narxining 15 foizini to'lab, qolgan 85 foizini 10 yil muddat ichida to'lash imkoniyatiga ega bo'ldilar. Bunda lizingdan foydalanganlik uchun yillik foiz to'lovlari Markaziy bank qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan oshmaydigan qilib belgilangan.

Demak, yuqoridagi fikrlardan ko'rinib turibdiki, hozirgi sharoitda qishloq xo'jaigini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida moliya-kredit va soliq mexanizmining roli yuqori bo'lmoqda. Bu o'z navbatida tarmoqning istiqboldagi taraqqiy etishida va insonlar uchun birinchi darajadagi zaruriy iste'mol mollarini sifatli va arzon ishlab chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi.

1.2. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortishning maqsadi va vazifalari.

Soliqlar asosiy iqtisodiy kategoriya sifatida qator vazifalarni bajarib, ularga yuklatilgan vazifalar jamiyatning iqtisodiy rivojlanishini turli bosqichlaridagi islohotlar strategik vazifalariga bevosita bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan islohotlar ustuvor yo'nalishlaridan kelib chiqqan holda soliq tizimining oldiga vazifalar yuklanadi.

Qishloq xo'jaigini rivojlantirish rivojlantirishning istiqbolli dasturi quyidagi eng muhim yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1. Agrar sohada iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, mulkiy munosabatlar va xo'jalik yuritish shakllarini takomillashtirish borasida barcha sub'ektlar o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlarni bozor tamoyillari asosida

amalga oshirish, shartnomaviy majburiyatlarning bajarilishida tomonlar ma'suliyatini oshirish.

2. Qishloq xo'jaligida erdan foydalanish mexanizmini takomillashtirish va samarali foydalanishni rag'batlantirish yo'nalishi bo'yicha tuproq unumdorligini oshirish va meliorativ holatini yaxshilash borasidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadida barcha hududlarda qishloq xo'jaligi erlari unumdorligini oshirish, unumdorligi past er maydonlari salmog'ini kamaytirish.

3. Suv xo'jaligi tizimini takomillashtirish, erlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash maqsadida suv xo'jaligi tizimida moddiy va ma'naviy eskirgan irrigatsiya-melioratsiya tizimini yangilash, uning samaradorligini oshirish, yangi sug'orish texnologiyalari va suvdan foydalanish mexanizmlarini joriy etish, er maydonlari meliorativ holatini yaxshilash, drenaj tarmoqlarini qurish va ta'mirlash tadbirlarini amalga oshirish.

4. Qishloq xo'jaligi ekinlari navlarini viloyatlar va tumanlarning tabiiy-iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda joylashtirish, mahsulotlar sifati va ekinlar hosildorligini oshirishga alohida e'tibor qaratish.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yuqori hosilli, tezpishar, kasallik va zararkunandalarga chidamli, yangi va istiqbolli, mahsulot sifati bozor talablariga javob beruvchi navlarni joylashtirish.

5. Chorvachilik tarmog'ini kompleks rivojlantirish asosan chorva mollarining naslini yaxshilash hisobiga mahsuldorligini oshirish.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning ustuvor vazifalari iqtisodiyotni erkinlashtirish, turli xil iqtisodiy instrumentlar vositasida davlatning iqtisodiyotni tartibga solish funktsiyasini qisqartirish va uning iqtisodiyotga aralashuvini cheklashdan iborat. Shu bilan birgalikda milliy ishlab chiqarishni shakllantirish va modernizatsiya qilish, yaxlit moliyaviy siyosatni olib borishda byudjet, soliq va pul-kredit siyosatini o'zaro uyg'unlashtirilgan holda amalga oshirish, byudjet taqchilligiga qisqartirish muhim ustuvor vazifalar qatoriga kiradi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun, avvalo, soliqlar orqali iqtisodiyotni boshqarish mexanizmini to'g'ri, oqilona ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish lozim

bo'ladi.

Soliqlarning mohiyati ularning bajaradigan funktsiyalaridan kelib chiqadi. Shuningdek, soliqlarning funktsiyalariga asoslangan holda ularga ma'lum vazmifalar yuklanadi.

Soliqlarning quyidagi asosiy funktsiyalarini ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir: *soliqning fiskal funktsiyasi, tartibga solish funktsiyasi, rag'batlantirish funktsiyasi, nazorat funktsiyasi, soliqni hisoblash jarayonini axborot bilan ta'minlash funktsiyasi.*

Soliqlarning asosiy funktsiyasi – *fiskal funktsiya* hisoblanib (lotincha fiscus so'zidan olingan bo'lib, xazina degan ma'noni anglatadi), bu funktsiyaning mohiyati shundan iboratki, soliqlar yordamida davlatning moliya resurslari hosil qilinadi hamda davlat faoliyat ko'rsatishi uchun moddiy sharoit yaratiladi. Ushbu funktsiya er solig'i va yagona er solig'ida ham o'z ifodasini topadi. Chunki er solig'i va yagona er soliqlarining ham asosiy vazifasi davlat byudjeti daromadlarini shakllantirish hisoblanadi.

Bozor munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi sharoitida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarning ikkinchi muhim funktsiyasi ularning iqtisodiyotdagi *tartibga soluvchilik* roli hisoblanadi. Ushbu funktsiya ham bevosita soliqlarga taaluqli bo'lib, bevosita soliqlar bo'yicha solik yukini o'zgartirish orqali iqtisodiyot tarmoqlaridagi tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan tartibga solinib turiladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlar ham rag'batlantirish funktsiyasi ham bajaradi. Ushbu funktsiya soliq tizimining eng muhim funktsiyalaridan biri bo'lib, ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moddiy xom-ashyo resurslari, shuningdek moliyaviy va mehnat resurslari, jamg'arilgan mol-mulkdan samarali foydalanishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi, ya'ni soliq yukini kamaytirish orqali ishlab chiqarishni rivojlantirishga, moliyaviy ahvolni mustahkamlashga va investitsiya faoliyatini jonlantirishga rag'batlantiradi. Soliqlarning rag'batlantirish funktsiyasi orqali davlat iqtisodiyot taraqqiyotini ta'minlaydi, bu bilan fiskal funktsiyani bajarish uchun bazani kengaytiradi va

ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlab, davlat oqilona soliq siyosatini olib borish yo'li bilan soliq yukini oshirmasdan xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlar ham boshqa soliqlar kabi nazorat funksiyasini ham bajaradi. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarni to'lovchi tomonidan taqdim etilgan, soliqqa tortish ob'ekti, soliqqa tortiladigan baza, imtiyozlar singari va hokazo tegishli soliq ko'rsatkichlarining hisob-kitoblarini tekshirishdek ancha murakkab jarayondan iborat.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarni hisoblash jarayonini *axborot bilan ta'minlash funksiyasi* ham muhim ahamiyat kasb etib, bu funktsiya orqali xarajatlar hajmi va konkret solikli tushumlar davlatning qanday ijtimoiy-iqtisodiy funktsiyalarini bajarishga sarflanganligi to'g'risida axborot berib turilishi juda zarurdir. Shunday qilinsa, soliqlarning byudjetga tushishi to'liq, o'z vaqtida va oson kechadi.

Yuqoridagi funktsiyalarga asoslangan holda iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarga quyidagi muhim vazifalarni bajarish yuklatiladi:

1. *Umumdavlat vazifalarini hal qilish uchun davlatga zaruriy moliyaviy resurslar ta'minlab berish.* Soliqlarning fiskal funktsiyasi ushbu vazifani hal qilish maqsadlariga xizmat qiladi. Bu vazifani hal qilish davlatning iqtisodiyotga qay darajada aralashuviga ko'p jihatdan bog'liq. Bu ko'rsatkich qanchalik yuqori bo'lsa, soliqlarning fiskal funktsiyasi shunchalik faol bo'ladi. Ammo soliqlarning ushbu vazifasi faqat iqtisodiy jarayonlarni qamrab olmaydi, balki davlatning noishlab chiqarish xarajatlarining ko'payishi ham davlatning ortiqcha moliyaviy resurslarga muhtojligini keltirib chiqaradi. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish orqali qishloq xo'jaligida yaratilgan milliy daromadning bir qismini davlat byudjetiga markazlashtiriladi. Xususan, yuqoridagi paragrafimizda ta'kidlaganmizdek, qishloq xo'jaligida mamlakat yalpi ichki mahsulotining 17,3%i yaratilmoqda. Demak, ushbu ulush teng nisbatlarida olingan

daromadni soliqlar orqali byudjetga markazlashtiriladi.

2. *Qishloq xo'jaligi iqtisodiyotida qulay investitsiya muhitini yaratishga ko'maklashish.* O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarning ushbu vazifasini bajarishi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bizga ma'lumki, qishloq xo'jaligi kapital iste'moli bo'yicha boshqa tarmoqlardan raqobat muhitida zaif bo'g'in hisoblanadi. Shuning uchun davlatimiz tomonidan qishloq xo'jaligidagi mavjud kapitalni boshqa tarmoqlarga o'tib ketishini oldini olish maqsadida tarmoqda faoliyat yurituvchi xo'jalik sub'ektlari uchun pasaytirilgan soliq yuki asosidagi soliqqa tortish tizimi amal qiladi va shuningdek, faoliyanining keng turlari uchun ko'plab imtiyoz va preferentsiyalar berilgan.

3. *Iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish maqsadida daromadlarni taqsimlashning samaradorlik va adolat printsiplari o'rtasidagi muvofiqlikka erishish.* Amaldagi soliqlarga barqarorlik va moslanuvchan soliq stavkalarining xosligi soliqlarning uzoq muddatli vazifalarini amalga oshirishga zamin yaratadi. Milliy va xorijiy investorlar kapital qo'yilmalarini amalga oshirar ekan, ular o'zlarining soliq majburiyatlarini aniq bilishi kerak. Soliq turlari va stavkalari barqaror va tez-tez o'zgarmaydigan bo'lishi kerak. Soliqqatortish tizimida mustahkam ishonch bo'lmagan taqdirda uzoq muddatli investitsiyalarning harakati susayadi.

4. *Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlar* iqtisodiyotning agrar sektorini yanada barqaror rivojlantirish, qishloq xo'jaligida iqtisodiy islohotlarni izchillik bilan chuqurlashtirib borish, fermerlik harakatini qo'llab-quvvatlash, uning moddiy va moliyaviy bazasini mustahkamlash, qishloq xo'jalik mahsulotlarini chuqur qayta ishlovchi zamonaviy raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni tatbiq qilish hamda ichki bozorni mahalliy oziq-ovqat tovarlari bilan to'ldirishga yo'naltirilgan rag'balantiruvchilik rolini kuchaytirish kabi vazifalarni bajaradi.

1.3.Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan er solig'i va yagna er solig'ining o'ziga xos xususiyatlari

Soliqlar to'g'risidagi qarashlarda er solig'i tarixan ob'ektiv va sub'ektiv omillarning ta'sirida shakllangan. Er solig'iga doir turli ta'riflarni tahlil qilish, ularning konkret iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotlar jarayonidagi mohiyatini asoslash, er solig'ini iqtisodiy rolini va soliq qonunchiligiga asos bo'lgan soliq tamoyillarini belgilash hamda soliq tizimida, jamiyat taraqqiyotida mavjud bo'lgan er soliqlarining tutgan o'rnini aniqlash zarurdir. Chunki, davlat paydo bo'lishi bilan soliqlar jamiyatdagi iqtisodiy munosabatlarning zaruriy talablaridan biri hisoblanib kelingan. Davlat tuzilish shakllarini rivojlanishi bilan bir vaqtda soliq tizimi o'zgargan va takomillashtirilgan. Soliq tizimining o'zgarishi va takomillashtirilishi er solig'ining turlari, miqdorlari va yig'ib olish usullari xilma-xil bo'lganligi bilan asoslanib kelingan.

Amir Temur soliq siyosatining asosiy yo'nalishlari uning farzandlariga siyosiy vasiyati bo'lmish «*Temur tuzuklari*» da ifodalangan bo'lib, uning soliq siyosati xususiyatlarini quyidagi fikrlari orqali ifodalashimiz mumkin: «Amr etdimki, raiyatdan mol-xiroj yig'ishda ularni og'ir ahvolga solib qo'yishdan yoki mamlakatni qashshoqlikka tushirib qo'yishdan saqlanish kerak. Negaki, raiyatni honavayron qilish (davlat) xazinasining kambag'allashishiga olib keladi. Xazinaning kamayib qolishi esa sipohning tarqalib ketishiga sabab bo'ladi. Sipohning tarqoqligi, o'z navbatida, saltanatning kuchsizlanishiga olib keladi»⁴. Asarda soliqlarni hisoblash qoidalari ham ishlab chiqilgan: «Yana amr qildimki, xirojni ekindan olingan hosilga va erning unumdorligiga qarab yig'sinlar. Chunonchi, doim uzluksiz ravishda koriz, buloq va daryo suvi bilan sug'oriladigan ekin erlarini hisobga olsinlar va unday erlardan olinadigan hosildan ikki hissasini raiyatga, bir hissasini oliy sarkorlik (saltanat xazinasini) uchun olsinlar. Lalmikor erlarni esa, jariblarga bo'lsinlar, hisobga olingan bu erlardan (soliq olishda) uchdan bir va to'rttdan bir qoidasiga amal qilsinlar»⁵. Ushbu jumalardan ko'rishimiz mumkinki, soliq erning lalmikor va

⁴ Темур тузуклари. Т.: «Чўлпон», 1991 и. 98-бет.

⁵ Темур тузуклари. Т.: «Чўлпон», 1991 и. 98-бет

sug'oriladigan qismlaridan alohida-alohida tartibda undirilgan. Bundan tashqari yangi erlar o'zlashtirishni rag'batlantirish maqsadida soliq imtiyozlari ham belgilangan: «Yana amr etdimki, kimki biron sahroni obod qilsa, yoki koriz qursa, yo biron bog' ko'tarsa yoxud biron xarob bo'lib yotgan erni obod qilsa, birinchi yili undan hech narsa olinmasin, ikkinchi yili raiyat o'z roziligi bilan berganini olsinlar, uchunchi yili esa oliq-soliq qonun-qoidasiga muvofiq xiroj yig'ilsin»⁶. Amir Temurning ushbu oqilona siyosati tufayli soliq to'lovchilarga soliq to'lash uchun qulay sharoit yaratilgan.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, Amir Temur va temuriylar davrida bir qadar tartibli soliq tizimi amal qilgan. Amir Temur va temuriylar davridagi soliq siyosati, uning yuritilish tartibi, undirilishiga oid qonun-qoidalar, to'lovchilarga berilgan imtiyozlar, bosib olingan hududlar uchun Amir Temur tomonidan qo'llanilgan soliq islohotlari, yig'ilgan soliqlardan xarajatlarni moliyalashtirish uchun ishlatish me'yorlari avvalgi davrlar soliq islohotidan tubdan farq qilib, ularni to'liqroq o'rganish hozirgi kunda ham ahamiyatli bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonda 1990 yilda "Er to'g'risida" qonun qabul qilindi va ushbu qonunga ko'ra erga egalik qilish va erdan foydalanishning pullik bo'lishi belgilandi hamda er uchun haq yillik er solig'i sifatida undirila boshlandi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikni qo'lga kiritgach 1993 yil 6 mayda O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan "Er solig'i to'g'risida"gi maxsus qonun qabul qilinib, unda er solig'ini undirishda soliqqa totish ob'ekti, sub'ektlari, soliq bo'yicha imtiyozlar, soliqni hisoblash va byudjetga to'lash tartiblari ko'rsatib berildi. Qonun 1994 yil 1 yanvardan amalga kiritildi. Qonunda erlardan noqishloq xo'jalik maqsadlarida foydalanadigan yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ining undirish tartiblari belgilab berildi. Shu bilan birga qishloq xo'jaligini ustuvor rivojlantirish zarurligini e'tiborga olib qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish bilan shug'ullanuvchi korxonalar va tashkilotlar uchun qonunni joriy etish 1995 yil 1 yanvargacha

⁶ Темур тузуклари. Т.: «Чўлпон», 1991 и. 99-бет

kechiktirildi. Shunday qilib er solig'ining joriy etilishi bilan mamlakatda er munosabatlarini tartibga solishning chinakam iqtisodiy vositalari paydo bo'ldi.

1997 yil 24 aprelda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi qabul qilinishi va 1998 yil 1 yanvardan kuchga kiritilishi hamda 1998 yil 30 aprelda O'zbekiston Respublikasining Er kodeksi qabul qilinishi va amalga kiritilishi bilan er solig'ining huquqiy asoslari yaratildi.

Hozirda er solig'iga doir barcha munosabatlar, ya'ni soliq to'lovchilar, soliq ob'ekti va bazasi, soliq stavkasi hamda hisoblab chiqarish va to'lash tartibi 2007 yil 25 dekabrda qabul qilingan va 2008 yil 1 yanvardan kuchga kirgan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Soliq kodeksi bilan tartibga solinadi.

Er solig'i O'zbekiston soliq tizimida mahalliy soliqlar va majburiy to'lovlar tarkibiga kiradi hamda mahalliy byudjetlarning barqaror daromad manbai hisoblanadi.

Er solig'i boshqa soliq turlaridan farqli o'laroq, o'ziga xos xususiyatlarga ega. Jumladan, o'zining iqtisodiy mohiyatiga ko'ra u renta to'lovidir yoki boshqacha qilib aytganda ushbu soliq er egalari va erdan foydalanuvchi xo'jalik yurituvchi sub'ektlar moliyaviy faoliyatining natijalari bilan bog'liq emas. Demak, ushbu soliqni joriy etilishidan maqsad- erdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan erlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda erni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi.

Nazariy jihatdan er tabiat inomi ekanligini hisobga olsak, er solig'i davlat va xo'jalik yurituvchi qishloq xo'jaligi subektlarida o'rtasida renta daromadlari bir qismining davlat ixtiyoriga qayta taqsimlash munosabatini aks ettiradi. Bozor sharoitida erlarni tasarruf etish jarayonida differentsial rentani hisobga olish va uning asosida er solig'i solish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun erlardan aniq talab va sharoitlarga javob beruvchi pullik xaq to'lash asosida foydalanish tizimi yuzaga chiqarilishi lozim. Bunda, birinchidan, er resurslaridan oqilona

foydalanishni raxbatlantirish, ikkinchidan, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining kengaytirilgan takror ishlab chiqarishi uchun nisbatan teng imkoniyatlarni ta'minlash, uchunchidan, tabiiy xolati buzilgan erlarni qayta tiklash uchun sharoitlar yaratish xamda tuproq unumdorligini oshirish lozim.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, jumladan qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari ham 1999 yilgacha barcha yuridik shaxslar kabi umumbelgilangan tartibda soliq to'lar edi. 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjetga to'lovlarini soddalashtirish va hisob-kitoblar tizimini ixchamlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'i joriy qilish to'g'risida»gi 2086-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi «Qishloq ho'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'i to'g'risida»gi 539-sonli qaroriga muvofiq yagona er solig'i joriy etildi.

Yagona er solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdan iboratdir. Qishloq xo'jalik mahsulotlar etishtiruvchi korxonalar asosiy faoliyatidan boshqa qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullansalar, ular qo'shimcha faoliyat bo'yicha alohida hisob-kitob yuritishlari va ushbu faoliyatdan umumbelgilangan yoki soddalashtirilgan tartibda soliq to'lashlari majburligi belgilab qo'yildi.

2008 yilda Respublikamizning barcha hududlaridagi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona er solig'ini qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarish tartibiga to'liq o'tkazildi.

Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mahalliy boshqaruv organlarining markazlashgan pul fondini tashkil etadigan mahalliy byudjetlarning daromad bazasini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etib, bu jarayonda soliq tushumlarini respublika va mahalliy byudjetlar o'rtasida to'g'ri taqsimlanishi

muhimdir. Zero Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlaganlaridek: "Muayyan byudjetlarni shakllantirish manbalari bo'lgan respublika soliqlari bilan mahalliy soliqlar o'rtasida aniq chegara o'tkazish soliq tizimini takomillashtirishning eng muhim yo'nalishidir"⁷. Bu borada esa bizningcha mahalliy byudjetlarning tartibga solinuvchi daromadlarining miqdori kamida uch moliyaviy yil mobaynida o'zgarmaydigan, ilmiy asoslangan me'yorlarga tayangan holda belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Chunki bu turdagi me'yorlar rivojlangan xorijiy mamlakatlar amaliyotida keng qo'llanilib, o'zining ijobiy natijalarini bermoqda. Bundan tashqari byudjetlar o'rtasidagi nobarqaror taqsimlash jarayoni mahalliy hukumat organlarining mahalliy byudjet daromadlarining daromad bazasini mustahkamlashdagi manfaatdorligini rag'batlantirmaydi. Chunki mahalliy hukumat tomonidan rejadan ortiq undirilgan soliq tushumlari respublika byudjetiga olib qo'yiladi.

Mahalliy byudjetlarning daromadlar qismini mustahkamlash bugungi byudjet islohotlarining strategik asosini tashkil etadi. Bunda hududlarda mol-mulkni, erni va tabiiy resurslarni soliqqa tortish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki soliqlar iqtisodiy siyosatning eng muhim vositasi bo'lib, soliqqa tortish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar qanchalik samara berishi ko'p jihatdan iqtisodiy islohotlarning xususiyati va dinamikasini belgilaydi.

1-bob bo'yicha xulosalar

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida moliya-kredit va soliq mexanizmining roli yuqori bo'lmoqda. Bu o'z navbatida tarmoqning istiqboldagi taraqqiy etishida va insonlar uchun birinchi darajadagi zaruriy iste'mol mollari sifatli va arzon ishlab chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligini soliqlar vositasida qo'llab quvvatlash siyosatining ob'ektiv zarurligi shu bilan belgilanadiki, tarmoqdagi ishlab chiqarishning xususiyati natijasida boshqa tarmqolarga nisbatan kapital muvozanati nuqtai nazardan zaif tarmoq hisoblanadi. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi past, asosiy

⁷ И.А.Каримов. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Тошкент. Ўзбекистон.-1998 йил. 361-бет.

mahsulot yilida bir marta shakllanishini e'tiborga olib, aylanma mablag'larning aylanish tezligi past darajada. Lekin tarmoqda insonlar xayotiy zarur ne'matlarini yaratiladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini byudjetning o'rta muddatli rejada hayotiyeligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

II.BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TOVARLARI ISHLAB CHIQUARUVCHILARINI SOLIQQA TORTISH MEXANIZMINING AMALDAGI HOLATINI TAHLILI

2.1. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni sliqqa tortishning amaldagi holatini tahlili.

Iqtisodiyotni modernizatsiya va erkinlashtirish sharoitida asosiy talablaridan biri bo'lgan xususiy mulk ustuvorligini ta'minlash borasida respublikaning agrar tarmog'ida xo'jalik yuritishning xususiy mulkchilikka asoslangan shakli hisoblangan fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirish uchun tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy sharoitlar yaratildi.

O'zbekiston Respublikasida yuridik shaxslar soliq qonunchiligiga ko'ra uch xil tartibda soliq to'lashi belgilab qo'yilgan. Jumladan, ularga umumbelgilangan tartibda soliq to'lash, soddalashtirilgan tartibda soliq to'lash hamda tadbirkorlikning ayrim faoliyatlari bilan shug'ullunuvchi yuridik shaxslar uchun qat'iy belgilangan soliqlardir.

O'zbekiston Respublikasida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, jumladan fermer xo'jaliklari ham 1999 yilgacha barcha yuridik shaxslar kabi umumbelgilangan tartibda soliq to'lar edi. 1999 yil 1 yanvardan boshlab qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarining byudjetga to'lovlarini soddalashtirish, ixchamlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi «Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'i joriy qilish to'g'risida»gi №2086-sonli Farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 26 dekabrdagi «Qishloq xujaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'i to'g'risida»gi №539-sonli qaroriga muvofiq yagona er solig'i joriy etildi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'i bilan birgalikda boj to'lovi, davlat boji, litsenziya yig'implari, byudjetdan tashqari jamg'armalarga ajratmalar to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi. Yagona er solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik erlaridan foydalanish samaradorligini oshirish, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarining

mehnatning pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, ularning soliq tizimini soddalashtirishdir. Qishloq xo'jalik mahsulotlar etishtiruvchi korxonalar asosiy faoliyatidan boshqa qo'shimcha faoliyat bilan shug'ullansalar ular qo'shimcha faoliyat bo'yicha alohida hisob- kitob yuritishlari va ushbu faoliyatdan umum belgilangan tartibda soliq to'lashlari majburligi belgilab qo'yildi. Yagona er solig'i to'lovchi korxonalar uchun soliq to'lash ob'ekti bo'lib ular egalik qilgan foydalanishdagi yoki ijaraga berilgan er maydoni hisoblandi.

Soliq solinadigan qishloq xo'jalik er maydonlari er uchastkalarining joylashishi tuproq boniteti va erning boshqa tavsiflari bo'yicha kadastr ma'lumotlari bo'yicha qabul qilindi. Qishloq xo'jaligi erlari maydonlari, ularning sifati va joylashgan joyi bo'yicha er balansi, er xaritasi, tekshiruv materiallari va boshqa er kadastri hujjatlari bo'yicha qabul qilindi.

Demak, qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari, jumladan, fermer xo'jaliklari hozirgi kunda byudjet va byudjetdan tashqari fondlarga asosan, erlarining normativ qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanadigan yagona er solig'i, yagona ijtimoiy to'lov, maktab ta'limini rivojlantirish jamg'armasiga hamda yo'l jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashga majburdirlar.

Bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud er uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va mazkur o'zi etishtirgan mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Yuqorida nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangi tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona er solig'i to'lovchilar bo'ladilar.

Yagona er solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona er solig'i to'lovchi yuqorida ko'rsatib o'tilgan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan e'tiboran umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Qishloq xo'jaligida amaldagi qonunlardan kelib chiqib har bir er maydoni turi uchun yagona er solig'ini quyidagi formula bo'yicha aniqlash mumkin, ya'ni:

$$\Sigma Ya_{er}^s = E_u \times S_{ti} \times K_t \quad (1)$$

Bu erda: ΣYa_{er}^s - yagona er solig'i summasi, so'mlarda;

E_u - er uchastkasi maydoni, gektarda;

S_{ti} - soliqning bazaviy stavkasi, 1 gektar uchun so'mlarda;

K_t - tuzatish koeffitsienti.

Erlarni normativ qiymatini aniqlash mezonlari O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida 2006 yil 19 aprelda N 1563 son bilan ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi Er Resurslari, Geodeziya, Kartografiya Va Davlat Kadastri Davlat Qo'mitasi Raisining 2006 yil 16 fevral'dagi N 19 sonli "O'zbekiston Respublikasidagi qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilarning qishloq xo'jalik erlari me'yoriy bahosini aniqlashning muvaqqat Yo'riqnomasini tasdiqlash haqida" gi buyrug'ida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni liberallashtirish davrida mahalliy soliqlarning mahalliy byudjet daromadlarini mustahkamlash, ularni daromad bazasini kengaytirib borish dolzarb masalalardan biridir. Mahalliy byudjetlarning daromadlar bazasini kengaytirish hududlarda yuridik va jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'ini doimiy va bir maromda to'liq undirilishi bilan bog'liq holda mahalliy hokimiyat organlarining mahalliy byudjetlarni daromadlarini oshishidan manfaatdorligi bilan bevosita bog'liqdir.

Ma'lumki, mahalliy soliqlar ichida asosiy o'rinni egallaydigan soliqlardan biri er solig'i hisoblanadi. Mahalliy byudjet daromadlarining 30-40 % qismi er solig'i ulushiga to'g'ri kelishi ham fikrimizni haqiqatga yaqin ekanligini isbotlaydi.

Er uchastkasini soliqqa tortishning rivojlanishi jarayonida uning fiskal va rag'batlantirish roliga ega ekanligi aniqlangan. Ushbu soliqning asosiy vazifasi, mahalliy byudjetni moliyaviy resurslar bilan ta'minlash hisoblanadi. Rag'batlantirish roli esa mavjud erdan oqilona foydalanishni rag'batlantirish, tuproq unumdorligini oshirish, sifati turlicha bo'lgan erlarda xo'jalik yuritishning ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarini tenglashtirish, aholi yashaydigan joylarda infrastruktura rivojlanishini ta'minlash hamda erni talon-taroj qilinishiga yo'l qo'ymaslik hisoblanadi. Davlat mulkdorlar faoliyatini boshqarish maqsadida er solig'idan ikki tomonlama foydalanish mumkin:

Bir tomondan mulkdorlarning foydalanilmayotgan erlarni (mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida) qonunda belgilangan tartibda soliqqa tortishi bo'lsa, ikkinchi tomondan, davlat uchun maqbul bo'lgan, ya'ni passiv faoliyatdan faol xo'jalik yuritish faoliyatiga o'tgan shaxslarga erlarni yo'naltirish. Bunday sharoitda erga joriy etilgan soliq, vosita sifatida qaralib, mulkdorlarni xo'jalik faoliyatida o'ziga tegishli bo'lgan er uchastkasidan samarali foydalanishga chorlaydi yoki egalik huquqlarini o'zgartirish yo'li bilan faol shaxslar er uchastkalaridan yanada samarali va oqilona foydalanishini rag'batlantiradi.

Davlat byudjeti daromadlarida er solig'i bo'yicha tushadigan mablag'larni tahlil qiladigan bo'lsak, uning o'zgarishi va salmog'ini quyidagi jadval orqali ifoda etamiz.


2.1-jadval

Er solig'ining byudjet daromadlaridagi salmog'i⁸,(mlrd. so'mda)

№	Ko'rsatkichlar	2010 yil	2011 yil	2012 yil
1	Daromadlar, maqsadli jamg'armalarsiz jami:	13116,4	16178,6	20614,1
2	Er solig'i	303,8	346,9	446,0
3	Jami daromadlarga nisbatan foizlarda	2,3	2,1	2,2

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, davlat byudjetining solikli daromadlari qismida er solig'i 2010 yilda 13116,4 mlrd. so'mni tashkil qilib, 2,3 foizni hamda 2011 yilda bo'yicha 16178,6 mlrd. so'm mablag' undirilib, solikli daromadlarning 2,1 foizni tashkil etgan. 2012 moliya yili uchun byudjetning solikli daromadlari 20614,1 mlrd. so'm bo'lishi nazarda tutilib, unda er solig'i 446,0 mln. so'mdan iborat bo'lishi prognoz qilingan hamda bu summa solikli daromadlarning 2,2 foizini tashkil qilishi belgilangan.

Quyidagi rasmda er solig'ini tushumining 2009-2012 yillarda o'sish sur'atlarini kuzatish mumkin:



2.1-rasm. Er solig'ining tushumlarini o'sish dinamikasi, mlrd.so'mda)⁹


Yuqoridagi rasmdan ko'rinib turibdiki, 2011 yilda er solig'i tushumi 2009 yilga nisbatan 126,1 foizga, ya'ni 71,8 mlrd.so'mga ko'paygan.

⁸ Davlat byudjeti parametrlari va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

⁹ Davlat byudjeti parametrlari va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan.

Shuningdek, er solig'i iqtisodiy ahamiyatiga ko'ra mulk va resurs soliqlari tarkibiga kiradi.


Er solig'ining mulk va resurs soliqlari tushumidagi salmog'iga ko'ra er qa'ridan foydalanganlik uchun soliq va mulk solig'idan so'ng uchinchi o'rinda turadi.



2.2-rasm. Er solig'ining mulk va resurs soliqlari tushumidagi salmog'i (2009-2012 yillar, mlrd.so'mda)¹⁰

Mulk va resurs soliqlari tushumida er solig'ining ulushi 2009 yilda 16,5 foiz, 2010 yilda 15,4 foiz va 2011 yilda 15,0 foizni tashkil qilgan. 2012 yilda esa prognoz ko'rsatkichlariga ko'ra 16,2 foiz bo'lishi kutilmoqda.

Shuningdek, er solig'ining mulk va resurs soliqlari tushumiga proportsional tarzda o'sishini quyidagi rasmda ko'ramiz:



2.3-rasm. Er solig'ining mulk va resurs soliqlari tushumiga proportsional tarzda o'sishi dinamikasi (2009-2012 yillar, mlrd.so'mda)¹¹

¹⁰ Davlat byudjeti parametrlari va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

¹¹ Davlat byudjeti parametrlari va Moliya vazirligi ma'lumotlari asosida tayyorlangan

Er solig'ining mulk va resurs soliqlaridagi salmog'ini tahlil qiladigan bo'lsak, 2009 yilda mulk va resurs soliqlari miqdori 1662,5 mlrd. so'm bo'lib, shundan 275,1 mlrd. so'm tushum er solig'i hissasiga to'g'ri keladi. Bu nisbat 2010 yilda 1974,1 mlrd.so'mga 303,8 mlrd.so'm va 2011 yilda 2308,9 mlrd.so'mga 346,9 mlrd.so'm to'g'ri kelgan. 2012 yil uchun esa prognoz ko'rsatkichlariga asosan, 2746,4 mlrd.so'mga 446,0 mlrd.so'm nisbatda o'sishi kutilmoqda.

2.2. Qishloq xo'jaligi korxonalaridan undiriladigan er solig'ini hisoblash va byudjetga to'lash tartibi.

Er soligi Uzbekiston Respublikasi solik tizimida maxalliy soliklar va yigimlar tarkibiga kiradi xamda maxalliy byudjetlarning barkaror daromad manbai xisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining Yangi taxrirdagi Soliq Kodeksining 49-bobi yuridik shaxslardan olinadigan er solig'iga bag'ishlangan bo'lib, 278-286 moddalarni o'ziga oladi.

Er uchastkalaridan foydalanganlik uchun byudjetga to'lovlar er solig'i yoki er uchun ijara haqi tariqasida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan ijaraga berilgan er uchastkalari uchun to'lanadigan ijara haqi er solig'iga tenglashtiriladi. Er uchastkalarini ijaraga olgan yuridik shaxslarga yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i stavkalari, yuridik shaxslardan olinadigan er solig'ini to'lovchilar uchun belgilangan imtiyozlar, soliqni hisoblab chiqarish, soliq hisob-kitoblarini taqdim etish va soliqni to'lash tartibi tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslar mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida foydalaniladigan er uchastkalari uchun er solig'i to'laydilar.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining norezidentlari er solig'ini to'lovchilaridir.

Ko'chmas mulk ijaraga berilgan taqdirda, ijaraga beruvchi er solig'ini to'lovchi bo'ladi.

Er uchastkasidan bir nechta yuridik shaxs birgalikda foydalangan taqdirda, har bir yuridik shaxs er uchastkasining foydalanilayotgan maydonidagi o'z ulushi uchun er solig'ini to'lovchidir.

Quyidagilar er solig'ini to'lovchilar bo'lmaydi:

Notijorat tashkilotlar. Tadbirkorlik faoliyati amalga oshirilgan taqdirda, notijorat tashkilotlar tadbirkorlik faoliyatida foydalanilgan er uchastkalari bo'yicha Soliq Kodeksida nazarda tutilgan tartibda er solig'i to'lovchilar bo'ladi;

Soliq solishning soddalashtirilgan tartibi nazarda tutilgan yuridik shaxslar, agar Soliq Kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa.

Yangiyo'l tumanida er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar sonini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi natijalarga erishamiz:

2.2-jadval

Yangiyo'l tumanida er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar soni to'g'risida¹²

Yillar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Er solig'ini to'lovchilar soni, ta	44	47	45

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Yangiyo'l tumanida er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslar 2011 yilda 44 ta, 2012 yilda 47 ta va 2013 yilda 45 tani tashkil etgan.

Mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi asosida yuridik shaxslarda bo'lgan er uchastkalari soliq solish ob'ektidir.

Quyidagilarga soliq solish ob'ekti sifatida qaralmaydi:

– aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari. Aholi punktlarining umumiy foydalanishdagi erlari jumlasiga quyidagilar kiradi:

¹² Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

- maydonlar, ko'chalar, tor ko'chalar, yo'llar, sug'orish tarmog'i, sohil bo'yi erlari va boshqa shu kabi erlar;
- aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan erlar (daraxtzorlar, bog'lar, sayilgohlar, xiyobonlar, shuningdek ariq tarmoqlari egallagan erlar);
- kommunal-maishiy erlar (qabristonlar, chiqindilarni zararsizlantirish va ularni utilizatsiya qilish joylari va boshqa shu kabi joylar);
- zaxira erlar.

Er uchastkasining Soliq Kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismiga muvofiq soliq solinmaydigan er uchastkalari maydonlari chegirib tashlangan holdagi umumiy maydoni soliq solinadigan bazadir.

Qaysi er uchastkalariga bo'lgan mulk huquqi, egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida soliq to'lovchiga o'tgan bo'lsa, o'sha er uchastkalari uchun soliq solinadigan baza er uchastkalariga tegishli huquq vujudga kelganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi. Er uchastkasining maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza er uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan e'tiboran kamaytiriladi.

Yangiyo'l tumanida er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslarga tegishli er maydonlari tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi jadvaldagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

2.3-jadval

Yangiyo'l tumanida yuridik shaxslarga tegishli soliqqa tortiladigan er maydonlari to'g'risida¹³

Yillar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Er maydoni, ga	139,0	101,6	152,5

Yangiyo'l tumanida er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslarga tegishli er maydonlari 2011 yilda 139 ga, 2012 yilda 101,6 ga va 2013 yilda 152,5 gani tashkil etgan.

¹³ Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuridik shaxslarda er solig'i bo'yicha imtiyoz huquqlari vujudga kelgan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq vujudga kelgan oydan e'tiboran kamaytiriladi. Er solig'i bo'yicha imtiyoz huquqi bekor qilingan taqdirda, soliq solinadigan baza ushbu huquq bekor qilinganidan keyingi oydan e'tiboran hisoblab chiqariladi (ko'paytiriladi).

Er solig'i har bir soliq davrining 1 yanvariga bo'lgan holatga ko'ra hisoblab chiqariladi va er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga hisobot yilining 15 fevraliga qadar taqdim etiladi.

Er solig'ini hisoblab chiqarish Soliq Kodeksining 281-moddasiga muvofiq hisoblab chiqarilgan soliq solinadigan bazadan va belgilangan stavkadan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Soliq solinadigan bazada (hisoblangan soliq summasida) soliq davri mobaynida o'zgarish bo'lganda yuridik shaxslar bir oylik muddat ichida davlat soliq xizmati organiga er solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini taqdim etishi shart.

Soliq davri mobaynida qishloq xo'jaligi ekinlarining umumiy maydonida va tarkibida o'zgarishlar yuz bergan yagona er solig'ini to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari er solig'ining aniqlashtirilgan hisob-kitobini davlat soliq xizmati organiga joriy yilning 1 dekabriga qadar taqdim etadi.

Yangiyo'l tumanida er solig'i stavkalari va soliq solish bazasidan kelib chiqib 2011-2013 yillarda hisoblangan soliq summalari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

2.4-jadval

Yangiyo'l tumanida yuridik shaxslarga hisoblangan er solig'i summalari to'g'risida¹⁴

(ming so'mda)			
Yillar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Er solig'i summasi	217174,0	156508,7	222397,1

¹⁴ Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarga ko'ra, yuridik shaxslarga tegishli er maydonlari uchun hisoblangan soliq summalari 2011 yilda 217174,0 ming so'm, 2012 yilda 156508,7 ming so'm va 2013 yilda 222397,1 ming so'mni tashkil etgan.

Er solig'ini to'lash, agar ushbu moddada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, yuridik shaxslar tomonidan yilning har choragida, yil choragi ikkinchi oyining 15-kuniga qadar teng ulushlarda amalga oshiriladi.

Hisobot davri uchun er solig'i to'lashning belgilangan muddatidan keyin majburiyatlar yuzaga kelganda, ushbu summani to'lash majburiyatlar yuzaga kelgan sanadan e'tiboran o'ttiz kundan kechiktirmay amalga oshiriladi.

Yagona er solig'i to'lashga o'tmagan qishloq xo'jaligi korxonalari tomonidan er solig'ini to'lash quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 iyuliga qadar - yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabriga qadar - yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabriga qadar - soliqning qolgan summasi.

Qishloq xo'jaligi korxonalari soliq solishning soddalashtirilgan tartibida yagona er solig'i to'lashga o'tishi mumkin.

Agar Soliq Kodeksida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bir vaqtning o'zida quyidagi shartlarga javob beradigan yuridik shaxslar soliq solish maqsadida qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar jumlasiga kiradi:

- er uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash yoxud er uchastkalaridan foydalangan holda faqat qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish asosiy faoliyat turi bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligini yuritish uchun mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan o'zlariga belgilangan tartibda berilgan er uchastkalariga ega bo'lgan yuridik shaxslar;

- qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va o'zi etishtirgan mazkur mahsulotni qayta ishlash ulushi realizatsiya qilish yoki qayta ishlash uchun olingan qishloq xo'jaligi mahsulotini o'z ichiga oluvchi qishloq xo'jaligi mahsulotini

etishtirish va qayta ishlash umumiy hajmida kamida 50 foizni tashkil etadigan yuridik shaxslar.

Soliq stavkasi soliq va boshqa majburiy to'lovlarni hisoblab chiqarish va to'lash uchun zarur elementlar biri bo'lib, Soliq kodeksining 27-moddasiga quyidagicha ta'rif berilgan: "Stavka soliq solinadigan bazaning o'lchov birligiga nisbatan hisoblanadigan foizlardagi yoki mutlaq summadagi miqdorni ifodalaydi.

Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning stavkalari, agar ushbu Kodeksda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan belgilanadi"¹⁵.

O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida er solig'i stavkalarini qo'llashga doir umumiy qoidalar aks ettirilgan.

Jumladan, er uchastkasi mulkdorining, er egasi, erdan foydalanuvchi yoki ijarachining aybi bilan qishloq xo'jaligi erlarining sifati yomonlashgan (bonitet balli pasaygan) taqdirda, yuridik shaxslardan undiriladigan er solig'i erning sifati yomonlashguniga qadar belgilangan stavkalar bo'yicha yuridik shaxslar tomonidan to'lanadi.

Shaharlar va shaharchalarning ma'muriy chegaralarida joylashgan qishloq xo'jaligi ahamiyatiga molik erlar uchun er solig'i qishloq xo'jaligi erlari uchun belgilangan stavkalarining ikki baravari miqdorida to'lanadi.

Er solig'i stavkalari har yili O'zbekiston Prezidentining keyingi yil prognoz ko'rsatkichlarini belgilashga doir qaroriga asosan qayta ko'rib chiqiladi. Ushbu stavkalar mulk va boshqa resurs soliqlari stavkalari qatori indeksatsiyalanadi. Bunga misol tariqasida 2014 yilda er solig'i stavkalari 1,2 baravar indeksatsiyalandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti har yilgi qarorlarida er solig'i stavkalari quyidagi turlarga muvofiq belgilangan:

- sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'ining bazaviy stavkalari va ularga tuzatuvchi koeffitsientlar;
- lalmi ekinzorlar, bo'z erlar va ko'p yillik ko'chatlar uchun undiriladigan

¹⁵ Ўзбекистон Республикаси Солиқ Кодекси. Тошкент, 2013 й.

er solig'i stavkalari;

– sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari;

– qishloq xo'jaligi va o'rmon xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa erlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari;

– Toshkent shahrida er uchastkalaridan foydalanganlik uchun er solig'i stavkalari;

– shaharlar va qo'rg'onlarda er uchastkalaridan foydalanganlik uchun er solig'i stavkalari;

– qishloq joylarda joylashgan er uchastkalaridan foydalanganlik uchun yuridik shaxslardan undiriladigan er solig'i stavkalari;

– qishloq joylarda joylashgan er uchastkalaridan foydalanganlik uchun fuqarolardan undiriladigan er solig'i stavkalari.

Endi mazkur er stavkalarni Toshkent viloyati misolida ko'rib chiqamiz.

Toshkent viloyatida Yangiyo'l tumanida sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'ining bazaviy stavkalari quyidagi jadvalda berilgan.

2.5-jadval


Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'ining bazaviy stavkalari¹⁶

(so'mda)

	2012 yil	2013 yil	2014 yil
1-toifali 1 ga er uchun soliqning bazaviy stavkalari, so'mda	9715,3	11658,0	13989,6

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'ining bazaviy stavkalari 2010 yilda 5611,3 so'm, 2011 yilda 6733,6 so'm va 2012 yilda 8080,3 so'm miqdorida belgilangan. Mazkur stavkaning o'zgarishini quyidagi rasmda ko'rish mumkin:

¹⁶ O'zRDSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.



2.4-rasm. Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'ining bazaviy stavkalarining 2010-2014 yillarda o'zgarish dinamikasi.¹⁷

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'i stavkasi sug'oriladigan qishloq xo'jaligi erlari uchun er solig'ining bazaviy stavkasi va er uchastkasining sifat xarakteristikasi (ball-boniteti)ni hisobga oladigan tuzatish koeffitsientidan kelib chiqib aniqlanadi. Tuzatish koeffitsientlari mazkur qarorlarda belgilangan.

2.6-jadval

Sug'oriladigan jamoat qishloq xo'jaligi erlari uchun undiriladigan er solig'ining bazaviy stavkalariga tuzatuvchi koeffitsientlar¹⁸

<i>Erlarning toifalari</i>	<i>Ball-bonitet</i>	<i>Koeffitsientlar</i>
I	0-10	(bazaviy stavka)
II	11-20	1,50
III	21-30	2,25
IV	31-40	3,29
V	41-50	4,67
VI	51-60	6,78
VII	61-70	9,00
VIII	71-80	11,68
IX	81-90	14,36
X	91-100	17,50
	Baholanmagan erlar	4,67

¹⁷ O'zRDSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Президентининг "2014 йилга асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари ва Давлат бюджети параметрлари прогнози тўғрисида"ги ПҚ-2099-сонли қарори.

Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

2.7-jadval

Sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari¹⁹

(1 ga uchun, so'mda)

Balandlik mintaqalari	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Cho'l	204,8	245,8	295,8
Adir	313,4	376,1	451,3
Tog'	428,5	514,2	617,0

Mazkur jadval ma'lumotlariga ko'ra, sug'orilmaydigan pichanzorlar va yaylovlar uchun undiriladigan er solig'i stavkalari:

- 2012 yilda cho'l hududi uchun 204,8 so'm, adir hududi uchun 313,4 so'm va tog' hududi uchun 428,5 so'm;
- 2013 yilda cho'l hududi uchun 245,8 so'm, adir hududi uchun 376,1 so'm va tog' hududi uchun 514,2 so'm;
- 2014 yilda cho'l hududi uchun 295,8 so'm, adir hududi uchun 451,3 so'm va tog' hududi uchun 617,0 so'm belgilangan.

Er solig'ini hisoblash mexanizmi va byudjetga to'lash tartibini Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani misolidagi tahlillarimiz natijasida shunday xulosalar olindi:

1.Iqtisodiy mohiyati jihatidan er solig'i renta tavsifidagi soliqlardan bir hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekston Respublikasi hududlarning erlarining tabiiy unumdorlik darajasi, ularning iqtisodiy nuqtai nazardan foydalanishdagi qulayliklariga qarab er solig'i stavkalari tabaqalashtirilgan. Bu holat o'z navbatida er solig'i orqali qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning unumdor erlardan samarali foydalanishlarini tartibga solish vazifasii bajarishini anglatadi.

2.Er solig'ining byudjet daromdaridagi salmog'i umumdavlat soliqlariga nisbatan past darajada bo'lsa-da, mahalliy soliqlar sifatida mahalliy byudjetlar daromadlarida sezilarli salmoqni tashkil etmoqda. Bu holat o'z navbatida er solig'i

¹⁹O'zRDSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

orqali qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning nafaqat hudud iqtisodiyotida, balki, maalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda ham ahamiyatini yuqoriligi ko'rsatib beradi.

3. Er solig'i bo'yicha bazaviy stavkalarni indeksatsiya qilinishi natijasida o'sib borishini iqtisodiy jihatdan baholaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning er solig'ining stavkasi nisbatan rag'batantiruvchilik vazifasini bajarayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, er solig'i bo'yicha yillik o'sish koeffitsienti o'rtacha 1,2 barobarni tashkil etmoqda. Yillik inflyatsiya darajasi esa o'rtacha 6-7 foizni tashkil etadi. Demak soliqlarning o'sish sur'atida yillik inflyatsiya yoki iste'mol narxlari indeksining o'sish sur'atidan past bo'lmoqda.

2.3.Qishloq xo'jaligi korxonaridan undiriladigan yagona er solig'ini hisoblash byudjetga to'lash tartibi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1998 yil 10 oktyabrdagi "Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilar uchun yagona er solig'ini joriy etish to'g'risida" gi PF-2086-sonli Farmoniga muvofiq 1999 yilning 1 yanvaridan boshlab qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'i joriy etildi.

Qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'ini joriy etilishi, o'z navbatida ularni quyidagi soliqlar va yig'imlarni to'lashdan ozod qildi:

- daromad (foyda) solig'i;
- qo'shilgan qiymat solig'i;
- ekologiya solig'i;
- suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;
- er solig'i;
- er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq;
- mol-mulk solig'i;
- obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i;
- boshqa mahalliy soliqlar va yig'imlar.

Yagona er solig'i to'lovchilari hisoblangan qishloq xo'jalik tovarlari ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona to'lovlari, davlat boji, litsenziya yig'implari, byudjetdan tashqari fondlarga ajratmalar, shuningdek aktsizosti mahsulotlarga aktsiz solig'ini to'lashning amaldagi tartibi saqlab qolindi.

Yagona er solig'ini joriy qilishdan maqsad qishloq xo'jalik erlaridan foydalanish samaradoriligini oshirish, qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilarini mehnatining pirovard natijalaridan iqtisodiy manfaatdorligini kuchaytirish, qishloq xo'jalik korxonalarini soliqqa tortish tizimini soddalashtirish va birxillashtirishdan iboratdir.

Mazkur soliqning amalga kiritilishi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarni tasarrufidagi erlaridan yanada oqilona foydalanishga da'vat etadi, chunki har bir gektar er maydoni uchun undan daromad olish yoki daromad olmaslik holatidan qat'iy nazar belgilangan miqdordagi soliq summasini to'lash lozim bo'ladi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun yagona er solig'ining joriy etilishi soliqqa tortish tizimida uning amal qilishi jarayonini yanada takomillashtirishdan dalolat beradi. Soliqqa tortishning ushbu tizimi xo'jaliklar hisobchilarining soliqlarni hisoblash va to'lash borasidagi ishlarni keskin kamaytirdi. Ilgari qishloq xo'jalik korxonalari o'nlab turdagi soliqlar va yig'implarni to'lashardi. Agar ayrim soliq turlarining har oyda va har yilning har choragida to'lanishini hisobga oladigan bo'lsak, unda ayrim xo'jaliklar davlat soliq organlariga soliqlar bo'yicha 30 dan ortiq hisob-kitoblarni taqdim etishi, 1 yilda ana shuncha to'lov topshiriqnomalarini to'ldirishi kerak bo'lar edi. Endilikda esa xo'jaliklar 1 yilda 1 marta bir turdagi soliq summaini hisoblab chiqishadi.

Qishloq xo'jaligi tovari ishlab chiqaruvchi korxonalar amaldagi umumdavlat soliqlari (daromad (foyda) solig'i, qo'shilgan qiymat solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, er osti boyliklaridan foydalanganlik uchun soliq) hamda mahalliy soliqlar (mol-mulk solig'i, er solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i) va yig'implarni to'lash o'rniga, (bundan aktsiz solig'i va import qilinadigan tovarlar (ishlar, xizmatlar) uchun qo'shilgan qiymat

solig'i mustasno) byudjetga o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlashdan yagona er solig'ini to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bo'yicha mazkur faoliyat turidan yagona er solig'ini to'laydilar va ular boshqa soliqqa tortish tizimini tanlash huquqiga ega emaslar.

Yagona er solig'ini to'lovchi hisoblangan qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari uchun bojxona bojlari, davlat bojlari, litsenziya yig'implari, davlat maqsadli jamg'armalariga ajratmalarni to'lashning amaldagi tartibi saqlanadi.

Qishloq xo'jaligi kooperativ (shirkat)lari, fermer xo'jaliklari, agrofimlar, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchi boshqa shaxslar, ushbu yuridik shaxslar qishloq xo'jaligi mahsulotini ishlab chiqarish bilan bir qatorda boshqa xo'jalik faoliyati bilan shug'ullanishlaridan qat'i nazar, yagona er solig'ini to'laydilar.

Agar yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari o'zlari ishlab chiqargan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bir qatorda boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullansalar, ular alohida hisob yuritishlari va boshqa faoliyat turlari bo'yicha shu toifadagi to'lovchilar uchun amaldagi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan soliqlarni to'lashga majburdirlar. Bunda, agar qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kirsa, faoliyatning boshqa turlari bo'yicha (savdo va umumiy ovqatlanish korxonalari uchun belgilangan soliqlar va yig'implar to'lanadigan savdo va umumiy ovqatlanishdan tashqari) ular faoliyatning mazkur turi uchun nazarda tutilgan yagona soliq to'lov yoki umumbelgilangan tartibda soliqlar to'laydilar.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan erlar ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganda ijaraga beruvchida ijaraga berilgan erlar bo'yicha yagona er solig'ini to'lash majburiyati saqlanib qoladi.

Qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilish, foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkasi maydoni yagona er solig'i solish ob'ekti hisoblanadi.

Soliq solinadigan qishloq xo'jaligi er maydonlari, er uchastkalarining joylashishi, tuproq boniteti va er mulkining boshqa tavsiflari er kadastri ma'lumotlari bo'yicha qabul qilinadi.

Shuningdek, yagona er solig'i stavkasi erning normativ qiymatiga nisbatan foizlarda ko'rsatiladi. Har bir xo'jalik bo'yicha qishloq xo'jaligi erlarining normativ qiymati O'zbekiston Respublikasi Er resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastri davlat qo'mitasi tomonidan belgilanadi.

2.8-jadval

Yagona er solig'i stavkasi²⁰

	2012 yil	2013 yil	2014 yil
Normativ qiymatga nisbatan stavka, foizda	5	6	6

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2012 yilda yagona er solig'i stavkasi 5 foiz miqdorida belgilangan bo'lsa, 2013 yilda esa 6 foizga ko'tarilgan. 2014 yilda esa 6 foiz saqlanib qolingan.

Bunda jamoat imoratlari va hovlilari bilan band bo'lgan erlar 2,0 koeffitsientini qo'llagan holda baholanadi.

Iqtisodiyotni jamiyat rivojlanishining ma'lum davri uchun zaruriy yo'nalishlarida boshqarib turishning asosiy ko'rinishlaridan biri soliq imtiyozlaridan samarali foydalanishdir. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida nazarda tutilgan hollarda, soliq yoki boshqa majburiy to'lov belgilanayotganda soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida soliq imtiyozlari, shuningdek, ularning soliq to'lovchi tomonidan qo'llanilishi uchun asoslar nazarda tutilishi mumkin.

Soliq Kodeksining 30-moddasida er va yagona er solig'i bo'yicha imtiyozlarni berish O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan amalga oshirilishi mumkinligi ta'kidlangan.

²⁰ O'zRDSQ ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Jamoat binolari, suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar, shuningdek qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa erlar band etgan erlar bo'yicha bazaviy stavkalar uchun tegishli tumanlar va shaharlarning sug'oriladigan erlari uchun tasdiqlangan stavkalar qabul qilinadi.

2.9-jadval

Yagona er solig'ining bazaviy stavkalariga tuzatish koeffitsientlari

Ko'rsatkichlar	Koeffitsientlar
<i>Sug'oriladigan erlar</i>	
0-10 ball - boniteti	(bazaviy stavka)
11-20	1,50
21-30	2,25
31-40	3,29
41-50	4,67
51-60	6,54
61-70	9,00
71-80	11,68
81-90	14,55
91-100	17,50
Baholanmagan erlar	4,67
<i>Lalmikor erlar</i>	
Tekislik zonasi	(bazaviy stavka)
Tekislik-tepalik zonasi	1,19
Tog'oldi va tog' zonasi	1,67
<i>Pichanzor va yaylovlar</i>	
"Cho'l" mintaqasi	(bazaviy stavka)
"Adir" mintaqasi	1,51
"Tog'" mintaqasi	2,05
<i>Jamoat binolari va hovlilarini band qilgan erlar</i>	
Sug'oriladigan erlar stavkasi (1 toifa) – bazaviy stavka	20,44
<i>Suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar bilan band erlar</i>	
Sug'oriladigan erlar stavkasi (1 toifa) – bazaviy stavka	0,04
<i>Qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan boshqa erlar</i>	
Sug'oriladigan erlar stavkasi (1 toifa) – bazaviy stavka	0,004

Yagona er solig'ini to'lovchilar mustaqil ravishda, er mulklari, bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsientlaridan kelib chiqib hisoblab chiqaradilar.

Erlarning har bir turi bo'yicha yagona er solig'i summasi quyidagi formula bo'yicha belgilanadi:

$$\text{Syaes} = \text{Meu} \times \text{Ssb} \times \text{Kt},$$

bu erda:

Syaes – yagona er solig'i summasi, so'mlarda, **Meu** – er uchastkasi maydoni, gektarda, **Ssb** – soliqning bazaviy stavkasi, 1 gektar uchun so'mda, **Kt** – tuzatish koeffitsienti.

Qishloq xo'jaligi erlari uchun yagona er solig'ining bazaviy stavkalari sifatida qabul qilingan:

- sug'oriladigan erlar bo'yicha - 1 klass erlari (bonitet balli 10 gacha);
- lalmikor erlar bo'yicha - tekislik zonasi erlari;
- pichanzorlar va o'tloqlar bo'yicha - "Cho'l" mintaqasi erlari.

Erlarning qayerda joylashgani va sifatiga (ball-bonitetga) bog'liq ravishda bazaviy stavkalar tegishli tuzatish koeffitsientlariga tuzatiladi.

Erning har bir turiga (sug'oriladigan erlar, lalmikor erlar, pichanzorlar, o'tloqlar) tegishli bazaviy stavkalar va tuzatish koeffitsientlari qo'llanadi, ular to'lovchilarga Moliya vazirligi va Davlat soliq qo'mitasi quyi organlari tomonidan belgilangan tartibda etkaziladi.

Baliqchilik korxonalari - sun'iy havzalar-hovuzlarda baliq urchitish, etishtirish va ovlash bilan shug'ullanadigan xo'jaliklar bo'lib, ular yagona er solig'ini to'lovchilar hisoblanishadi.

Baliqchilik xo'jaliklaridan undiriladigan yagona er solig'ini hisoblab chiqarishda:

a) sun'iy baliq urchitish hovuzlari band etgan erlar uchun sug'oriladigan erlar sifatida tegishli tuzatish koeffitsienti qo'llaniladi, sifati (bonitet ballari) belgilanmagan erlar uchun esa baholanmagan erlar sifatida koeffitsient qo'llaniladi;

b) dambalar va jarlar band etgan erlar uchun qishloq xo'jaligida foydalanilmaydigan erlar sifatida tuzatish koeffitsienti qo'llaniladi;

v) kanallar, kollektorlar, yo'llar va suv xo'jaligi ahamiyatidagi boshqa erlar band etgan erlar uchun suv havzalari, kanallar, kollektorlar va yo'llar band etgan erlar sifatida tuzatish koeffitsienti qo'llaniladi.

Qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona er solig'i summasini belgilangan shakl (11-ilova) bo'yicha hisoblab chiqaradilar va davlat soliq organlariga hisob-kitobni joriy yilning 1 fevraligacha taqdim etadilar.

Fermer xo'jaliklari hisoblab chiqarilgan yagona er solig'i umumiy summasining 97,5%ini maxsus tranzit hisobvarag'iga, 2,5% ini Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga to'laydilar.

Yagona er solig'i bo'yicha hisob-kitoblarda maxsus tranzit hisobvarag'iga to'lanadigan yagona er solig'i summasi hamda Dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash jamg'armasiga to'lanadigan yagona er solig'i summasi alohida ustun bilan aks ettiriladi.

Yagona er solig'i yiliga uch marta quyidagi tartibda to'lanadi:

- hisobot yilining 1 iyuligacha - yillik soliq summasining kamida 20 foizini;
- hisobot yilining 1 sentyabrigacha - yillik soliq summasining kamida 30 foizini;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliq summasining qolgan qismini.

Yil davomida er mulklari tarkibi va maydoni o'zgargan taqdirda soliq to'lovchi davlat soliq organlariga hisobot yilining 1 dekabriga qadar yagona er solig'ining yangi hisob-kitobini topshiradi, soliqning qolgan qismi uni hisobga olgan holda to'lanadi. Buxgalteriya hisobida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari yagona er solig'i bo'yicha byudjet bilan hisob-kitobni byudjetga to'lovlar bo'yicha qarzlarni hisobga olish hisobvarag'ida yuritadilar.

Har bir soliq turi bo'yicha imtiyozlar Soliq kodeksining mazkur soliqlarga tegishli maxsus boblarida aniq moddalarida yoritilgan.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar - yagona er solig'i to'lovchilarga Soliq kodeksi 282-moddasining ikkinchi qismida nazarda tutilgan er solig'i bo'yicha imtiyozlar ham tatbiq etiladi.

Soliq Kodeksida nazarda tutilgan shartlarga javob beradigan yangidan tashkil etilgan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar davlat ro'yxatidan o'tkazilgan paytdan e'tiboran yagona er solig'ini to'lovchilar bo'ladi.

Quyidagilar yagona er solig'ini to'lovchilar sifatida qaralmaydi:

o'rmon va ovchilik xo'jaliklari;

yuridik shaxs tashkil etgan va tashkil etmagan holda tuzilgan dehqon xo'jaliklari.

Yangiyo'l tumanida yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari sonini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi natijalarga erishamiz:

2.10-jadval

Yangiyo'l tumanida yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari soni to'g'risida²¹

Yillar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Yagona er solig'ini to'lovchilar soni, ta	640	586	522

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, Yangiyo'l tumanida yagona er solig'ini to'lovchi qishloq xo'jaligi korxonalari 2011 yilda 640 ta, 2012 yilda 586 ta va 2013 yilda 522 tani tashkil etgan. Yildan-yilga qishloq xo'jaligi korxonalarini kamayishi sababi er maydonlarini optimallashtirish islohotlarining ta'siridir.

Yagona er solig'ini to'lash tartibini qo'llash uchun soliq to'lovchi har yili joriy soliq davrining 1 fevraliga qadar soliq bo'yicha hisobga olish joyidagi davlat soliq xizmati organlariga o'tgan soliq davrida qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushi ko'rsatilgan ma'lumotnomani taqdim etadi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlashning umumiy hajmida qishloq xo'jaligi mahsulotining o'zi etishtirgan va qayta ishlagan ulushini aniqlashda Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlar hisobga olinmaydi.

²¹ Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Agar o'tgan soliq davri yakunlari bo'yicha yagona er solig'i to'lovchi Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermasa, soliq to'lovchi joriy soliq davrining boshidan boshlab umumbelgilangan soliqlarni yoki yagona soliq to'lovini to'lashga o'tishi kerak.

Mikrofirmalar va kichik korxonalar toifasiga kiradigan soliq to'lovchi Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob bermay qo'ygan soliq davridan keyingi yilning 1 fevralidan kechiktirmay davlat soliq xizmati organiga soliq solish tartibini tanlash to'g'risida yozma bildirish taqdim etadi. Soliq to'lovchining yozma bildirishni belgilangan muddatda taqdim etmaganligi uning umumbelgilangan soliqlarni to'lashga roziligi deb hisoblanadi.

Yagona er solig'ini to'lashdan umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq to'lovchi ushbu Kodeksda nazarda tutilgan yuridik shaxslardan olinadigan foyda solig'i, obodonlashtirish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish solig'i va yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha u umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tgan soliq davrining birinchi choragi uchun joriy to'lovlarni to'lashdan ozod qilinadi.

Soliq Kodeksi 362-moddasining ikkinchi qismida belgilangan shartlarga javob beradigan qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilar, shuningdek qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot tashkilotlarining tajriba-eksperimental xo'jaliklari va ta'lim muassasalarining o'quv-tajriba xo'jaliklari faoliyatning yagona er solig'ini to'lash tatbiq etiladigan qismi bo'yicha soliq solishning boshqacha tartibini tanlash huquqiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotini etishtirish va qayta ishlash bilan bog'liq bo'lmagan faoliyat turlarini amalga oshirishda yagona er solig'i to'lovchi mazkur faoliyat turlari bo'yicha alohida-alohida hisob yuritishi shart.

Soliq Kodeksi 350-moddasining birinchi qismiga muvofiq soliq solish tartibini tanlash huquqi saqlab qolingan mikrofirmalar va kichik korxonalar faoliyatning boshqa turlari bo'yicha korxonalarning tegishli toifalari uchun belgilangan stavkalar bo'yicha yagona soliq to'lovi to'lashi mumkin.

Mikrofimalar va kichik korxonalar toifasiga kirmaydigan soliq to'lovchi umumbelgilangan soliqlarni to'lashga o'tishi kerak.

Yagona er solig'ini to'lovchilar uchun Soliq Kodeksining 132-moddasida nazarda tutilgan boshqa daromadlarga soliq solinmaydi, dividendlar va foizlar, birgalikdagi faoliyatdan olingan daromadlar bundan mustasno.

Birgalikdagi faoliyatdan olinadigan daromadlarga yagona er solig'i to'lovchida dividendlarga soliq solish uchun belgilangan stavkalar bo'yicha soliq solinadi.

Er uchastkalari ijaraga (shu jumladan ichki xo'jalik pudratiga) berilganida yagona er solig'ini to'lash majburiyati ijaraga beruvchining zimmasida saqlanib qoladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq qishloq xo'jaligini yuritish uchun egalik qilishga, foydalanishga yoki ijaraga berilgan er uchastkasi soliq solish ob'ektidir.

Soliq solinadigan er uchastkalarining qonun hujjatlariga muvofiq belgilangan normativ qiymati soliq solinadigan bazadir.

Yangiyo'l tumanida yagona er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslarga tegishli er maydonlari tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi jadvaldagi ma'lumotlarga ega bo'lamiz:

2.11-jadval

Yangiyo'l tumanida qishloq xo'jaligi korxonalariga tegishli soliqqa tortiladigan er maydonlari to'g'risida²²

Yillar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Er maydoni, ga	28789,3	27933,8	27933,8

Yangiyo'l tumanida yagona er solig'ini to'lovchi yuridik shaxslarga tegishli er maydonlari 2011 yilda 28789,3 ga hamda 2012 va 2013 yillarda 27933,8 gani tashkil etgan.

Egalik qilish huquqi, foydalanish huquqi yoki ijara huquqi yil mobaynida vujudga kelgan er uchastkalari uchun soliq solinadigan baza er uchastkalariga

²² Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

bo'lgan huquq vujudga kelgan oydan keyingi oydan boshlab hisoblab chiqariladi. Er uchastkasi maydoni kamaytirilgan taqdirda, soliq solinadigan baza er uchastkasi maydoni kamaytirilgan oydan boshlab kamaytiriladi.

Yuridik shaxslarda yagona er solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquqlar vujudga kelganda soliq solinadigan baza bu huquq vujudga kelgan oydan boshlab kamaytiriladi. Yagona er solig'i bo'yicha imtiyozga bo'lgan huquq tugatilgan taqdirda, soliq solinadigan baza bu huquq tugatilgan oydan keyingi oydan boshlab ko'paytiriladi.

Yagona er solig'i summasi er uchastkalarining normativ qiymati va yagona er solig'ining belgilangan stavkasidan kelib chiqqan holda hisoblab chiqariladi.

Yangiyo'l tumanida yagona er solig'i 2011-2013 yillarda hisoblangan soliq summolari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

2.12-jadval

Yangiyo'l tumanida hisoblangan yagona er solig'i summolari to'g'risida²³

(ming so'mda)

Yillar	2011 yil	2012 yil	2013 yil
Er solig'i summasi	923310,8	948231,6	1543217,1

Yuqoridagi jadval ma'lumotlarga ko'ra, yagona er solig'i summolari 2011 yilda 923310,8 ming so'm, 2012 yilda 948231,6 ming so'm va 2013 yilda 1543217,1 ming so'mni tashkil etgan.

Yagona er solig'ining hisob-kitobi er uchastkasi joylashgan erdagi davlat soliq xizmati organiga joriy soliq davrining 1 mayigacha taqdim etiladi.

Yil davomida berilgan er uchastkalari uchun yagona er solig'i er uchastkasi berilganidan keyingi oydan boshlab to'lanadi. Er uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) taqdirda, yagona er solig'ini to'lash er uchastkasi olib qo'yilgan (kamaytirilgan) oydan boshlab to'xtatiladi (kamaytiriladi).

Er uchastkasining tarkibi va maydoni yil davomida o'zgargan, shuningdek yagona er solig'i bo'yicha imtiyozlarga bo'lgan huquq vujudga kelgan (tugatilgan)

²³ Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

taqdirda, soliq to'lovchilar davlat soliq xizmati organlariga hisobot yilining 1 dekabrigacha yagona er solig'ining aniqlik kiritilgan hisob-kitobini taqdim etishlari shart.

Yagona er solig'ini to'lash quyidagi muddatlarda amalga oshiriladi:

- hisobot yilining 1 iyuligacha - yillik soliq summasining 20 foizi;
- hisobot yilining 1 sentyabrigacha - yillik soliq summasining 30 foizi;
- hisobot yilining 1 dekabrigacha - soliqning qolgan summasi.

Toshkent viloyati Yangiyo'l tumanida imtiyozga ega yagona er solig'i to'lovchilarni quyidagi jadval ma'lumotlariga asosan ko'rish mumkin.

2.13-jadval

Yangiyo'l tumanida imtiyozga ega bo'lgan yagona er solig'i to'lovchilar²⁴

Yillar	soni, ta	er maydoni, ga	soliq summasi, ming so'mda
2011 yil	3	186,0	5 367,6
2012 yil	4	259,2	11388,2
2013 yil	4	259,2	11388,2

Mazkur jadvaldan ko'rinib turibdiki, Yangiyo'l tumanida 2011 yilda imtiyozga ega 3 ta soliq to'lovchi mavjud bo'lib, jami 186,0 ga er maydoniga ega bo'lgan va ular 5367,6 ming so'm yagona er solig'i to'lashdan ozod bo'lgan. 2012 va 2013 yillarda Yangiyo'l davlat soliq inspeksiyasining hisobot ko'rsatkichlari bir xil bo'lgan. Mazkur yillarda imtiyozga ega 4 ta soliq to'lovchi mavjud bo'lib, jami 259,2 ga er maydoniga ega bo'lgan va ular 11388,2 ming so'm yagona er solig'i to'lashdan ozod bo'lgan.

2-bob bo'yicha xulosalar

Er solig'ini hisoblash mexanizmi va byudjetga to'lash tartibini Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani misolidagi tahlillarimiz natijasida shunay xulosalar olindi:

1.Iqtisodiy mohiyati jihatidan er solig'i renta tavsifidagi soliqlardan bir hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekston Respublikasi hududlarning erlarining

²⁴ Toshkent viloyati Yangiyo'l tuman DSI ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

tabiiy unumdorlik darajasi, ularning iqtisodiy nuqtai nazardan foydalanishdagi qulayliklariga qarab er solig'i stavkalari tabaqalashtirilgan. Bu holat o'z navbatida er solig'i orqali qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning unumdor erlardan samarali foydalanishlarini tartibga solish vazifasini bajarishini anglatadi.

2. Er solig'ining byudjet daromdaridagi salmog'i umumdavlat soliqlariga nisbatan past darajada bo'lsa-da, mahalliy soliqlar sifatida mahalliy byudjetlar daromadlarida sezilarli salmoqni tashkil etmoqda. Bu holat o'z navbatida er solig'i orqali qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning nafaqat hudud iqtisodiyotida, balki, maalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda ham ahamiyatini yuqoriligi ko'rsatib beradi.

3. Er solig'i bo'yicha bazaviy stavkalarni indeksatsiya qilinishi natijasida o'sib borishini iqtisodiy jihatdan baholaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning er solig'ining stavkasi nisbatan rag'batantiruvchilik vazifasini bajarayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, er solig'i bo'yicha yillik o'sish koeffitsienti o'rtacha 1,2 barobarni tashkil etmoqda. Yillik inflyatsiya darajasi esa o'rtacha 6-7 foizni tashkil etadi. Demak soliqlarning o'sish sur'atida yillik inflyatsiya yoki iste'mol narxlari indeksining o'sish sur'atidan past bo'lmoqda.

Fermer xo'jaliklari yagona er solig'ining joriy etilishi shubhasiz, soliqqa tortish jarayonini soddalashtiradi va qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oldindan qilingan taxminiy hisob kitoblar shuni ko'rsatmoqdadagi, ko'pgina xo'jaliklarda yagona er solig'i summasi avvval to'langan summalar atrofida bo'lishi mumkin. Ammo ba'zi xo'jaliklar bo'yicha bu yilgi soliq summasi ko'proq ham bulishi mumkin. Shu sababli yagona er solig'ini joriy etilishi soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari samaradorligini o'rganish, erlarni kadastrli baholash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, fermer xo'jaliklari tovar ishlab chiqaruvchi korxonalarini soliqqa tortishda yagona er solig'ini joriy etilishi soliq tizimini bir muncha takomillashiga olib keldi. Fermer xo'jaliklariga yagona er solig'ini joriy etilishi

soliq samaradorligini oshishiga olib keldi. Buning asosiy sababi hisobotni soddalashtiradi va vaqtdan unumli foydalanishga va xodimlarni ish unumdorligini oshirishga olib keladi. Bu esa o'z navbatida xodimlar sonini qisqarishiga va hisobotlarni komp'yuterlashtirishga sabab bo'ladi.

III.BOB. QISHLOQ XO'JALIGI TOVARLARI ISHLAB CHIQUVCHILARNI SOLIQQQA TORTISH TIZIMINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI

3.1. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimining xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribalari.

Biz izlanishimiz davomida xorijiy mamlakatlardan bir nechtasi bilan ya'ni Rossiya Federatsiyasi, Ukraina, Germaniya, Ispaniya Qirolligi, Qozogiston Respublikalarining er solig'ini undirish tartibi bilan tanishib, ularning ayrim xususiyatlarini o'rganib, ular buyicha quyidagi ma'lumotlarga ega bo'ldik.

Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari to'laydigan soliqlar tarkibiga nazar tashlanganda, ularning turli mamlakatlar miqyosida soliq turlariga qarab soliqlarni tabaqalashganini ko'rish mumkin (3.1-jadval).

3.1-jadval

**Ayrim rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jalik sub'ektlari
to'laydigan asosiy soliq turlari²⁵**

Soliq turlari	AQSh	Frantsiya	Italiya	Buyuk Britaniya	Germaniya
Daromad solig'i	+	+	+	+	+
Korporativ soliq	+	+	+	+	+
Mol-mulk solig'i	***	+	-	+	***
Er solig'i	+	+	~*	-	+
Mahalliy soliqlar (er solig'idan tashqari)	+	+	+	+	+
QQS	-	+	+	+	+
Sotuvga soliq	+	-	-	-	-
Ijtimoiy to'lovlar	+	+	+	+	+

* - daromad solig'iga kiritilgan.

** - er solig'iga kiritilgan.

Germaniya, Frantsiya, Italiyada qishloq xo'jalik sub'ektlari hisoblangan fermerlik kooperativlariga korporativ soliqni to'lash bo'yicha imtiyozlar keng tarqalgan. Rivojlangan davlatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari

²⁵ Ваҳобов А., Жўраев А. Солиқлар ва солиққа тортиш: Дарслик – Т.: “IQTISOD-MOLIYA” nashriёti – 2007. – 150 bet.

to'laydigan er solig'i boshqa yuridik shaxslarga nisbatan ancha past miqdorda belgilangan.

Gollandiyada bevosita qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida mehnatga qobiliyatli aholining 4 foizigina ishlaydi. Bu davlatning xududi va aholisi O'zbekiston bilan solishtirganda bir necha barobarga kam. Tabiiy sharoiti esa qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishi uchun anchagina noqulay. Shunga qaramasdan ushbu mamlakat qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish bo'yicha dunyoda uchinchi o'rinda turadi. Eksportning yillik hajmi taxminan 35 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi.

Jahonda samarali faoliyat ko'rsatayotgan fermer xo'jaliklari AQSh davlatida mukammal shakllangan deb atash mumkin. Buning asosiy sabablari, fermer xo'jaliklariga yordam dasturlarini mablag' bilan ta'minlashda federal xukumat etakchilikni o'zida saqlab turganligi bilan izohlanadi.

Buyuk Britaniya soliq tizimida fermer xo'jaliklarini soliqqa tortish alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu mamlakatda fermerlar to'laydigan asosiy soliq turi daromad solig'i hisoblanib, u moliya yilida xo'jalikda hosil qilingan daromad yoki foydadan belgilangan shkala bo'yicha undiriladi. Daromad solig'ini undirish maqsadida fermer xo'jaliklariga beshta soliq shkalasi ishlab chiqilgan bo'lib, unda er, mol-mulklarni ijaraga berishdan olingan daromadlarga soliq solish, o'rmon xo'jaliklaridan olinadigan foydaga soliq solish, asosiy faoliyatdan tashqari olingan daromad manbalariga soliq solish, ishchi xodimlar va yollanma mehnat qiluvchilarning daromadlariga soliq solish jarayonlari aks ettiriladi. Fermer xo'jaliklari uchun moliya yili 1 apreldan boshlanib keyingi kalendar yilining 31 martida tugaydi. Foyda solig'i moliya yil yakuni bo'yicha hisob-kitob qilinadi va hisoblangan soliq summasining 50 foizini 1 yanvarda va qolgan qismini 1 iyunda byudjetga to'lab beradi. Ya'ni bu erda soliqni byudjetga undirishda qishloq xo'jaligining mavsumiyligi hisobga olingan.

Jumladan, Rossiya davlatida erlarga kadastr ishlarini tadbik etish 1842 yildan boshlanib, 20 yil davom etgan. Kadastr ishlarini usha davrda Rossiyaning davlat mulki vazirligining kadastr guruxlari amalga oshirgan. Ular er maydonlarini

toifalarga bulishda kishlok xo'jalik mahsulotlarining xosildorligi xakidagi ma'lumotlariga tayangan xolda ish olib borgan. Rossiyada erlarni baholashda urtacha xosildorlik surab-surishtirish yuli bilan yoki tugri nazorat kilish orkali aniklanib, umumiy daromad mikdori belgilangan. Bundan ishlov uchun kilingan xarajatlar xisoblanib, xar bir turdagi er maydonidan olinadigan sof foyda aniklangan. 1899 yilda Rossiyaning Davlat Mulki vazirligi erni baholashning yangi koidalarini kiritdi, uning asosiga shartli ravishda ishlov beriladigan erlarni beshta klassifikatsiyaga bulgan, ya'ni eng yaxshi erlardan to eng yomon turdagi erlargacha bulingan.

Rossiya Federatsiyasi Soliq kodeksining 390-moddasi 2-qismiga asosan jismoniy shaxslarning egaligida bo'lgan er maydoni uchun er solig'i miqdori ushbu erning kadastr bahosidan kelib chiqqan holda hisoblanishi belgilab qo'yilgan. Mazkur moddaning 3-bandi ikkinchi qismi talablariga asosan yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan er solig'i summasi ro'yxatga oluvchi organdan olingan ma'lumotlarga asosan shaxsan hisob-kitob amalga oshirilishi va bu to'g'risida DSIga ma'lumot taqdim etilishi belgilangan. Shu bilan birglikda Rossiya Soliq kodeksiga asosan jismoniy shaxslardan er solig'i to'liq imtiyoz qo'llanilmasdan, balki quyidagi toifalarga 10000 rubl hisobida chegirma berilishi ko'zda tutilgan. Bular:

- 1) Sovet Ittifoqi Qahramoni, Rossiya Federatsiyasi Qahramonlari, barcha darajadagi Shuhrat ordeni bilan taqdirlangan jismoniy shaxslar;
- 2) nogironlar, ish vaqti chegaralangan jismoniy shaxsalar hamda 1-2-guruh nogironlari;
- 3) yoshlikdan nogironlar;
- 4) ulug' vatan urushi veteranlari va nogironlari hamda ularga teglashtirilgan jismoniy shaxslar;
- 5) davlat tomonidan kam ta'minlanganlik uchun tegishli mablag'lar oladigan jismoniy shaxslar;
- 6) yadro va termoyadro qurollarini sinovdan o'tkazish bo'yicha tuzulgan guruhlarda faoliyatni amalga oshirgan jismoniy shaxslar;

7) yadro qurolini sinovda o'tkazish jarayonida nurlanish olgan jismoniy shaxslar;

Soliq kodeksining 393-moddasi 2-bandiga asosan, er solig'ini to'lash muddati yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun choraklik, yarim yillik va to'qqiz oylik qilib belgilangan.

Kodeks talablariga asosan qurilish uchun ajratilgan er maydonidan er solig'i dastlabki 3 yil ichida to'lanishi lozim bo'lgan soliq summasiga ekvivalent miqdorda 3 koefitsient qo'llagan holda undirilishi hamda qurib bitkazilgandan keyin qayta hisob-kitob qilinishi belgilangan. Shuningdek, ushbu er uchastkasi 3 yillik muddat ichida qurib bitkazilmagan taqdirda ulardan er solig'iga summasiga ekvivalent miqdorda qo'shimcha 4 koefitsient qo'llanilgan holda undirilishi belgilangan.

Jismoniy shaxslar tomonidan uy joy qurish uchun sotib olingan er uchastkalaridan samarali foydalanilamagan taqdirda 10 yillik muddatdan keyin soliq summasiga qo'shimcha ekvivalent miqdorda 2 koefitsient qo'llanilgan holda undirilishi ko'zda tutilgan. Bu borada ajratilgan er uchastkalari ishlatilmagan yoki boshqa maqsadlarda ishlatilgan taqdirda er solig'i summasiga ekvivalent 2 baravar ko'p miqdorda undirilishi belgilangan.

Rossiya Federatsiyasi soliq kodeksiga asosan, jismoniy shaxslarni er solig'i to'lovchi sifatida ro'yxatga olish va soliq hisoblash muddati 1 iyun, to'lov xabarnomalari tarqatilishi 1 avgust hamda soliq to'lash 15 sentyabr va 15 noyabr etib belgilangan.

Xududiy mahalliy hokimliklarga soliq to'lash muddatlariga o'zgartishlar kiritish huquqi berilgan.

Keyingi er solig'ini undirish tartibini urgangan davlatimiz Xitoy Xalq Respublikasi xisoblanadi. Er solig'ini tulovchilari bulib yuridik va jismoniy shaxslar xisoblanadi. Chet el sarmoyasi bilan ishlayotgan korxonalar, chet el kompaniyalari va chet el fuqorolari er solig'i to'lamaydilar. Soliq stavkasi regionlar bo'yicha tabaqalashtirilgan yillik stavka 1 m² shahar joylari uchun – 0,5 – 10 yuan, o'rta shaharlar uchun 0,4-8 yuan, kichik shaharlar uchun 0,3 – 6 yuan, qazilma boyliklar qazib oladigan rayonlar uchun 0,2 – 4 yuan.

Soliqdan ozod etilgan: davlat organlari erlarni, jamiyat va harbiy tashkilotlar, korxonalar erlari, davlat byudjeti orqali moliyalashtirilgan erlar, uyarkaviy xramlar, (parklar) xiyobonlar, umumiy foydalaniladigan erlar, chorvachilik komplekslari joylashgan erlar va baliqchilik xo'jaliklari, tabiatni muhofaza qilish uchun foydalanilgan erlar. v.x.k

Qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish uchun ajratilgan erlarni foydalaganlik solig'i yuridik va jismoniy shaxslardan undiriladi (Chet el kompaniyalari, chet el investitsiyasi bilan ishlaydigan korxonalar va chet el fuqarolari bundan mustasno).

Soliq chegirmalari qishloqda yashovchi aholilar uchun joriy etilishi mumkin agar ular yangi qurilish qilgan bo'lsa, harbiylar va ularni oilasi, etimlar tog' yonbag'rida o'rta xol yashayotgan dehqonlar yo'l qurilishi uchun mo'ljallangan erlar v.x.k.

Erni sotishdan soliq. Soliq to'lovchilar tashkilotlar va fuqarolar. Sotgandan olgan daromadlaridan va erlardan foydalanish xuquqi boshqaga o'tkazilganda.

Soliq bazasi baholangan qiymatga qarab belgilanadi. Ko'chmas mulkni baholash qiymati, mulkini sotishdan olingan tushumdan sotish bilan bog'liq harajatlarni chegirmasi. Progressiv stavka qo'llaniladi.

Keyingi er solig'ini undirish tartibini o'rgangan davlatimiz **Qozog'iston** Respublikasi xisoblanadi. Er solig'ini yuridik va jismoniy shaxslar 1 yilda bir marta to'laydilar. Er uchastkalari solik solish ob'ekti bo'ladi. Astana va Almata shaharlaridagi jismoniy shaxslar uchun agarda er uchastkasi 0,06 ga dan oshmasa har bir 0,01 ga uchun 20 tengedan, agarda 0,06 ga dan oshsa har bir 0,01 ga uchun 600 tengedan to'lanadi. Boshqa shaharlar uchun er uchastkasi 0,50 ga dan oshmasa har bir 0,01 ga uchun 20 tengedan, agarda 0,50 ga dan oshsa har bir 0,01 ga uchun 100 tengedan to'lanadi Er solig'ini to'lov muddatlari 1 yilda 4 marta 20 fevral, 20 may, 20 avgust va 20 noyabr.

Globallashuv sharoitida jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, agrar tarmoqning jadal o'sishi mamlakatda iqtisodiyotning yuksalishi uchun asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi tovar ishlab

chiqaruvchilarining soliqqa tortish tizimi yanada soddalashtirilishga qarab ketmoqda. Xorijiy mamlakatlar amaliyotida soliqlar tabaqalashtirilgan bo'lib, o'rnatilgan soliqlar soliq ob'ektidan yoki daromad olish darajasidan kelib chiqib byudjetga to'lanadi. Agrar sektorga ma'lum bir imtiyozlar hamda maxsus soliq rejimi qo'llaniladi va ular albatta ishlab chiqarish xususiyatlari bilan bog'liq bo'ladi. Bu xususiyatlarga fasllar almashinuvi, tabiiy ob-havo sharoitlarini misol qilish mumkin.

3.2. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish yo'llari.

Er resurslari umummilliy boylik hisoblanadi. Xalqning turmush tarzi, hayoti, ijtimoiy – iqtisodiy faoliyati farovonligining asosi sifatida er resurslaridan oqilina va odilona foydalanish zarur. Davlat tomonidan xar doim er resurslari muxofaza qilinib uning unumdorligini oshirish va sifatini yaxshilash borasida g'amxo'rlik qilingan va qilinmoqda. Zero, yurtboshimiz ham urning ana shundan xususiyatini teran anglagan holda “Er- o'lkamizni eng asosiy boyligi . U ediradi, ichiradi, yashash uchun shart sharoitlarni yaratib beradi. Shu sababli respublikaning kelajagi, O'zbekiston xalqining kelajagi ko'p jixatdan erdan foydalanish munosabatlari qanday tashkil etilishiga bog'liq” bo'lishini alohida takidlagan.

Hozirgi kunda ham bu tadbirlar davom ettirilib, birinchi galda soliqqa tortish munosabatlarida asosiy soliq yukini resurslardan olinadigan soliqlar zimmasiga o'tkazish siyosati orqali mavjud er, er osti va suv resurslardan tejab tergab foydalanish, ularning samaradorligini oshirish hamda sifatini yaxshilashga erishish ko'zda tutilgan . Bu siyosatni yurgizish natijasida bir tomondan, resurslarga bo'lgan e'tiborni kuchaytirilishi, ulardan samarali foydalanishga erishiladigan bo'lsa, ikkinchi tomondan davlat byudjet daromadlarini shakllantirishda resurs soliqlarini salmog'ini oshirishdan iborat bo'ladi Bugungi kunda resurs soliqlari o'rtasida davlat byudjet daromadlarini shakllantirishda er solig'i eng asosiy o'rinda turadi. Ammo hozirgi kunda er solig'ini hisoblash va undirish jarayonida amalda bir qancha ziddiyatli muammolarga duch

kelinmoqdaki, buning natijasida mamlakatimizdagi amalga oshirish lozim bo'lgan soliq siyosati samaradorligi pasayib ketayotganligini guvohi bo'lamiz.

Yangi taxrirdagi Uzbekiston Respublikasi Soliq kodeksining kabul qilinishida er solig'i xisoblashdagi ayrim kamchiliklarni xisobga olgan xolda «Yuridik shaxslardan olinadigan er solig'i», «Yagona er solig'i» xamda «Jismoniy shaxslardan olinadigan er solig'i» alohida ajratilib, muvofiq ravishda soliq bazasi va stavkalari, imtiyozlar belgilanishi orkali er solig'ini xisoblash va undirish mexanizmlari takomillashtirildi.

Shu bilan birga, mamlakatimiz soliq tizimida soliq to'lovchilar va soliq organlari xodimlari uchun qulayliklar yaratish, shu bilan birgalikda er solig'iga tortish tizimini takomillashtirish maqsadida bir qator o'zgarishlarni amalga oshirish bizning fikrimizcha maqsadga muvofiq bo'ladi.

Er resurslarini solikka tortish masalalarini ilmiy va amaliy yondashgan xolda tadqiq kilinishi, jumladan, er resurslarini solikka tortish amaliyotini normativ-xuqukiy bazasini yanada takomillashtirish va mustahkamlash lozim. Er qonunchiligida isloxotlarni amalga oshirish kerak, jumladan, er kodeksini tegishli tartibda ko'rib chiqib, unga qushimchalar kiritish zarur. Masalan, erdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralarini kuchaytirish zarur.

Soliq tizimida ma'lumotlar bazasining qanchalik haqqoniyligi davlat daromadlarini to'g'ri va aniq prognoz qilishga ta'sir qiladi. Soliq idoralariga tegishli tartibda mahalliy soliqlar ob'ektlari hamda fuqarolarning soliq to'lovchilariga nisbatan imtiyozga asos bo'luvchi hujjatarni bevosita taqdim qiluvchi tashkilotlar faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish soliq idoralariga junatilayotgan ma'lumotlarning xaqqoniyligini ta'minlashga erishish. Chunki hozirgi kunda soliq idoralariga tuman ijtimoiy ta'minot bo'limi, tuman mudofaa bo'limlari kabi tashkilotlar tomonidan berilayotgan ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmaydi. Taqdim etilgan ma'lumotlar xam aniqlik va to'g'rilik etishmaydi.

Respublikamizda agrar soha yaxshi rivojlanganligi sababli qishloq joylarda yashovchi ko'pchilik fuqarolarning daromadi tomorqadan olinadigan hosilga bog'liq. Erdan oqilona foydalanish xamda ushbu soliqning mahalliy byudjetlardagi ulushini ko'paytirish maqsadida uy sharoitida erdan resurslardan tadbirkorlik faoliyati sifatida foydalanayotgan fuqarolardan er solig'ini bir necha barobar yuqori stavkada undirish lozim.

Shuningdek, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufidagi er maydonlariga nisbatan er solig'i hisoblashda erning o'lchami bilan birgalikda undan olinadigan daromad va xarajatni xam xisobga olish zarur. Chunki, er xam yuridik shaxslarda ma'lum ma'noda asosiy vosita xisoblanadi.

Ayrim xo'jalik yurituvchi sub'ektlarga tegishli er maydonlari ikki tumanga tegishli bo'lishi mumkin. Mazkur holatda sub'ektlar er solig'ini to'lashda, soliqni ro'yxatdan o'tgan tuman byudjetiga to'lashi, xisobotlarni esa, o'sha tuman soliq idorasiga topshirish hamda ikkinchi tumanga tegishli tartibda ma'lumotnoma olib borishni tashkil qilish kerak. Bu o'z navbatida, bir tashkilotning ikkita soliq idorasi tomonidan tekshirilishi va tekshiruvlar soni ko'payishini oldini oladi.

Qishlok xo'jalik erlarining sifati yomonlashgan, ya'ni bonitet bali pasaygan takdirda er solig'i erning sifati yomonlashgunga kadar belgilangan stavkalar bo'yicha to'lanishi belgilangan bo'lib, bu kishlok xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi yuridik shaxslarni erning unumdorligini pasaytirmaslik uchun harakat kilishlarini ta'minlaydi.

Shu bilan birga, er solig'i stavkalarini xisoblab chiqishda er maydonining joylashuvi, sifati bilan birga etishtiriladigan mahsulot turi va narx o'zgarishi tendentsiyasi e'tiborga olinishi kerak.

Har qanday sharoitda ham soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar hamda yig'imlar davlat byudjetining asosiy daromad qismini tashkil qiluvchi manbalar bo'lib kelgan.

Hozirgi kunga kelib soliq munosabatlari davlat bilan soliq to'lovchi jismoniy va yuridik shaxslar o'rtasida sodir bo'lib, soliqlar nafaqat byudjet daromadlarini shakllantirish (fiskal), balki rag'batlantiruvchi, qayta taqsimlovchi, tartibga

soluvchi hamda nazorat funktsiyalarini ham amalga oshirib kelmoqda. Soliqqa tortish ob'ekti sifatida soliq to'lovchilarning daromadi, aylanma mablag'lari hamda mol-mulki hisoblanadi.

Ma'lumki, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan soliq siyosatining asosini hozirgi kunda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar daromadidan olinadigan soliqlar yukini resurs soliqlari zimmasiga o'tkazish chora-tadbirlari tashkil qiladi. Bu siyosatni amalga oshirishda bosh islohotchi muhtaram Prezidentimizning shaxsan o'zlari etakchi bo'lib turibdi.

Hozirgi kunda iqtisodiyot sohasida printsiplial muhim ustuvor vazifalardan biri - soliq siyosatini yanada takomillashtirishdir.

Soliqqa tortish masalasida amaliyotda sinalgan printsipl va yondashuvlarni ishlab chiqish, bu borada boshqa mamlakatlarning ilg'or tajribasidan foydalanish o'ta muhim ahamiyatga ega. Soliq tizimi nafaqat soliqlarni undirish, balki birinchi galda, rag'batlantirish xususiyatiga ega bo'lishi lozim.

Shunga erishmog'imiz kerakki, har bir soliq to'lovchi, u xoh jismoniy, xoh yuridik shaxs bo'lsin, soliq to'lashdan bo'yin tovlamasdan, daromadlarini yashirishga urinmasdan, aksincha, o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromadini oshirishga intilsin. Bugun hayotning o'zi soliqlar adresli bo'lishini taqozo etmoqda. Soliq to'lovchi nima uchun va qancha soliq to'lashi haqida aniq tasavvurga ega bo'lmog'i darkor. Bu o'rinda asosiy yuk tabiiy, mineral-xom ashyo, er-suv va boshqa zaxiralardan tejamkorlik bilan va oqilona foydalanishni rag'batlantiruvchi resurs soliqlariga tushishi lozim.

O'z navbatida resurs soliqlari soliq to'lovchilarning tasarrufidagi va o'zlari foydalaniyotgan resurslardan undiriladi. Bu soliqlarni undirishdan maqsad ham o'z-o'zidan byudjet manfaatlarini qondirish va shu bilan birgalikda xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan resurslardan samarali, tejamkorlik asosida ishlatishni ham tashkil qiladi. Chunki hozirgi kunda hayotning o'zi, mavjud tabiiy resurslardan yuridik va jismoniy shaxslar samarali foydalanishni, tugaydigan resurslar ya'ni suv va foydali qazilmalardan tejab tergap foydalanish, er rusurslaridan esa samarali foydalanishni talab qiladi. Lekin hozirgi kunda

mamlakatimizda yuridik va jismoniy shaxslar mavjud tabiiy resurslardan, jumladan mavjud er resurslaridan ko'r-ko'rona foydalanishi natijasida ularning unumdorlik darajasi va ball boniteti pasayib ketmoqda. Shu bilan birgalikda davlat ixtiyorida bo'lgan erlardan o'zboshimchalik bilan foydalanish holatlari ham ko'plab kuzatilmoqda. Demak, hozirgi kunda mavjud resurslardan samarali, tejab tergan foydalanishni tartibga solish, hamda o'z navbatida byudjet daromadlarini ko'paytirish maqsadida resurs soliqlarini hamda ularni undirish mexanizmini takomillashtirishimiz lozim bo'lib qoladi. Shu jumladan er solig'i va uning funktsiyaviy xususiyatlarini takomillashtirish orqali erga nisbatan samarali foydalanish hissini, ulardan oqilona foydalanishni yo'lga qo'yish mumkin bo'lar ekan.

Yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan egallangan er maydonlarini to'lik ro'yxatga olish, tegishli tartibda soliqlar hisoblash va xisoblangan soliklarni o'z vaqtida va to'lik byudjetga undirish ham bugungi kunning davlat solik xizmati organlarining asosiy vazifalaridan biri xisoblanadi.

Davlat er kadastri erlarning tabiiy, xo'jalik va huquqiy rejimi, ularning toifalari, sifat ko'rsatkichlari va bahosi, er uchastkalarining joylashgan manzili va o'lchamlari, ularni er egalariga, erdan foydalanuvchilarga, ijarachilarga hamda mulkdorlarga taqsimlash to'g'risidagi zarur, ishonchli ma'lumotlar va hujjatlarni tashkil qilish tizimidir.

Er uchastkasining chegarasi planlarda (chizmalarda) qayd etiladi va naturada (joyning o'zida) belgilanadi. Er uchastkasining maydoni naturada (joyning o'zida) chegara belgilanganidan keyin aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining er to'g'risidagi qonun hujjatlariga asosan erlar fuqarolarga hamda korxona va tashkilotlarga erdan foydalanish huquqini beradilar.

Ammo ayrim holatlarda yuridik shaxslarga ajratilgan erlarning xujjatda ko'rsatilgan o'lchami bilan haqiqatdagi o'lchami bir biriga to'g'ri kelmaydi. Soliq idoralariga tegishli idoralar tomonidan berilgan ma'lumotlar tarkibida kamchiliklarning mavjudligi, ya'ni erlarning to'g'ri o'lchanmaganligi, erlarning

haqiqatda jismoniy shaxslarga berilganiga mos kelmasligi oqibatida solikqa tortish muammolari kelib chiqadi.

Egalik huquqidagi erlarni soliqqa tortishda yuzaga kelayotgan muammolardan yana biri bu soliq qonunchiligidagi ayrim kamchiliklar hisoblanadi. Misol uchun me'yoridan ortiqcha erdan foydalanayotgan jismoniy shaxslarga soliq qonunchiligida javobgarlik mavjud, ammo hech qanaqangi xujjatlarsiz erlardan o'z hohishicha foydalanib kelayotgan yuridik shaxslarga Soliq Kodeksida ham, Er Kodeksida ham hech qanaqangi moliyaviy yoki ma'muriy jazo qo'llanilishi ko'rsatilmagan.

Yuqoridagi ko'rsatib o'tilgan muamolarni oldini olish maqsadida bugungi kunda, birinchi navbatda er qonunchiligini tubdan isloh qilish lozim bo'ladi. Bu jarayonda birinchi islohatni Er Kodeksidan boshlash zarur bo'ladi. Chunki bu xujjat er bilan bog'liq qonun xujjatlarining majmuasi hisoblanadi.

Ikkinchidan esa, er tuzish, erni o'lchash va yuridik shaxslarga egalik huquqini beruvchi idoralarning funktsiyalarini takomillashtirishimiz, ularning ish sifatlarini yaxshilashimiz lozim bo'ladi. Chunki asosiy er solig'ini to'lash bilan bog'liq muammolar ushbu idoralarning ish faoliyatidagi kamchiliklar oqibatida yuzaga kelmoqda.

Uchinchidan, soliq to'lovchi yuridik shaxslarning soliq to'lashga bo'lgan ongli munosabatini shakllantirishimiz, buning uchun esa, ular orasida targ'ibot tashviqot ishlarini olib borishimiz, mavjudlarini ham kuchaytirishimiz lozim bo'ladi.

Hozirgi kunda er uchastkalari, bino va inshootlarga kadastr raqami berish faqat «Ergeodezkadastr» boshqarmasi tomonidan maxsus dasturiy mahsul orqali amalga oshirilmoqda. Shu sababli soliq ob'ektlarining kadastr raqamini «Soliq to'lovchi jismoniy shaxslar va ularning soliq majburiyatlarini hisobga olish dasturiy mahsuli»ga kiritish, shaxsiy hisobvaraqlarni kadastr (unikal kod) raqami «indeksi» asosida yuritishni Toshkent shahar kadastr va soliq idoralari o'rtasida elektron axborot almashish orqali tajriba tariqasida sinab ko'rish bo'yicha ishlar tashkil etilgan.

Xususan, DSQ va «Ergeodezkadastr» boshqarmasi o'rtasida «Vaqtinchalik bitim» imzolanib, unga asosan shahar kadastr idorasida shakllangan ma'lumotlar bazasidan egaligida ko'chmas mulki bo'lgan jismoniy shaxslar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan birga mazkur ob'ektning kadastr raqamini ham soliq organlariga taqdim etib borish nazarda tutilgan. Elektron axborot almashish doimiy tusga ega bo'lib, kelishilgan muddatlarda yangilanib turishi ko'zda tutilgan.

Bu borada «Ergeodezkadastr» boshqarmasi bilan birga muayyan ishlar olib borildi. Jumladan, Vaqtinchalik Bitimga asosan «Ergeodezkadastr» boshqarmasining hududiy bo'linmalarida yuritilayotgan ma'lumotlar bazasidagi er va mulk ob'ektlari egalari to'g'risidagi ma'lumotga qo'shimcha ravishda Internet portal orqali DSQ bazasidan jismoniy shaxslarning STIRlarini o'qish va ularning bazasiga mulk va er ob'ektlari egalarining STIRlarini kiritib borish imkoniyati yaratib berildi. Hozirgi kunda «Ergeodezkadastr» boshqarmasi tomonidan mulk va er ob'ektlariga jismoniy shaxslarning STIRlarini kiritish ishlari bo'yicha tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Ishlab chiqilgan texnik topshiriq kelishish uchun Axborot-taxlil bosh boshqarmasiga taqdim etildi.

Ushbu tadbir samarali amalga oshirilsa:

- kadastr idoralari va soliq organlari o'rtasida axborot almashish, ma'lumotlarni taqqoslash ishlari soddalashadi, samarasi oshadi, ikki idoraning elektron bazasi ma'lumotlari birxilligi ta'minlanadi;

- DSIlarda yuritilayotgan ma'lumotlar bazasida shaxsiy hisobvaraqlar bino, inshoot va er ob'ektlarining kadastr (unikal kod) raqamlariga bog'lanadi (STIR qo'shimcha «kalit» sifatida saqlanib qolinadi) va bunda soliq to'lovchi (sub'ekt) bir necha marta almashganda ham soliq ob'ekti (unikal kodi) o'zgarmaydi;

- soliq ob'ektlarini to'liq hisobga olish va muvofiqlashtirilgan elektron tarzda axborot almashish orqali ularning hisobi tizimli yuritiladi;

- har bir ob'ekt bo'yicha hisoblangan va to'langan summalar, soliq qarzlari bo'yicha izchil nazoratni ta'minlashga erishiladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq siyosatini takomillashtirish, mavjud resurslardan, jumladan er resurslardan oqilona, samarali foydalanishni xamda byudjet daromadlarida er solig'i ulushini ko'paytirish maqsadida quyidagi takliflarni berib o'tamiz :

3-bob bo'yicha xulosalar

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarni soliqqa tortish tizimini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalar olindi:

Birinchidan, er qonunchiligida islohotlarni amalga oshirish lozim jumladan, er kodeksini tegishli tartibda ko'rib chiqib, unga qushimchalar kiritish zarur. Masalan, erdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralarini kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, soliq idoralariga tegishli tartibda mahalliy soliqlar ob'ektlari hamda fuqarolarning soliq to'lovchilariga nisbatan imtiyozga asos bo'luvchi hujjatarni bevosita taqdim qiluvchi tashkilotlar faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish soliq idoralariga junatilayotgan ma'lumotlarning xaqqoniyligini ta'minlashga erishish. Chunki hozirgi kunda soliq idoralariga tuman ijtimoiy ta'minot bo'limi, tuman mudofaa bo'limlari tomonidan berilayotgan ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmaydi. Taqdim etilgan ma'lumotlar xam aniqlik va to'g'rilik etishmaydi.

Uchinchidan, erdan oqilona foydalanish xamda ushbu soliqning mahalliy byudjetlardagi ulushini ko'paytirish maqsadida uy sharoitida erdan resurslardan tadbirkorlik faoliyati sifatida foydalanayotgan fuqarolardan er solig'ini bir necha barobar yuqori stavkada undirish lozim.

To'rtinchidan, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufidagi er maydonlariga nisbatan er solig'i hisoblashda erning o'lchami bilan birgalikda undan olinadigan daromad va xarajatni xam xisobga olish zarur. Chunki er xam yuridik shaxslarda ma'lum ma'noda asosiy vosita xisoblanadi.

Beshinchidan, egallab turgan er maydoni ikki tumanga tegishli sub'ektlarning er solig'ini to'lashda, soliqni ro'yxatdan o'tgan tuman byudjetiga to'lashi, xisobotlarni esa, o'sha tuman soliq idorasiga topshirish hamda ikkinchi

tumanga tegishli tartibda ma'lumotnoma olib borishni tashkil qilish kerak. Bu o'z navbatida, bir tashkilotning ikkita soliq idorasi tomonidan tekshirilishi va tekshiruvlar soni ko'payishini oldini oladi.

Ettinchidan, er solig'i stavkalarini xisoblab chiqishda er maydonining joylashuvi, sifati bilan birga etishtiriladigan mahsulot turi va narx o'zgarishi tendentsiyasi e'tiborga olinishi kerak.

Bunda, er resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish maqsadida, ajratilgan er uchastkalari ishlatilamagan yoki boshqa maqsadlarda ishlatilgan hamda 3 yil va undan ortiq davrda qurilish ishlari tugallanmagan holatlari aniqlangan taqdirda 4-yildan boshlab, soliq summasiga ekvivalent miqdorda 1 koeffitsient, 5-yilda 2 koeffitsient va shu tartibda soliq summasini o'sib boruvchi tartibini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi;

Shuningdek, amaldagi Soliq kodeksiga asosan soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumot DSIlarga taqdim etilishi 1 fevral, soliq to'lovchilarga to'lov xabarnomalarini tarqatish muddati 1 maygacha hamda to'lov muddati 15 oktyabrga qadar etib belgilangan sababli soliq idoralariga va soliq to'lovchilarga noqulayliklar yaratmoqda. Shuning uchun to'lov xabarnomasini tarqatish muddatini 1 iyungacha uzaytirish lozim.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi sharoitda qishloq xo'jaligini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatida moliya-kredit va soliq mexanizmining roli yuqori bo'lmoqda. Bu o'z navbatida tarmoqning istiqboldagi taraqqiy etishida va insonlar uchun birinchi darajadagi zaruriy iste'mol mollarini sifatli va arzon ishlab chiqarishda muhim omil bo'lib xizmat qilishini ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligini soliqlar vositasida qo'llab quvvatlash siyosatining ob'ektiv zarurligi shu bilan belgilanadiki, tarmoqdagi ishlab chiqarishning xususiyati natijasida boshqa tarmqolarga nisbatan kapital muvozanati nuqtai nazardan zaif tarmoq hisoblanadi. Ya'ni, mahsulot ishlab chiqarish rentabelligi past, asosiy mahsulot yilida bir marta shakllanishini e'tiborga olib, aylanma mablag'larning aylanish tezligi past darajada. Lekin tarmoqda insonlar xayotiy zarur ne'matlarini yaratiladi.

Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlarning vazifalari ularni amalga oshirish muddatiga qarab, qisqa muddatli, o'rta va uzoq muddatli vazifalarga bo'linadi. Bu vazifalar mazmuniga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilardan undiriladigan soliqlar nafaqat davlat byudjetining tushumlariga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga balki davlat daromadlarini byudjetning o'rta muddatli rejada hayotiyeligini yaxshilash maqsadida moslashuvchanligini amalga oshirishga ham xizmat qilishi mumkin.

Er solig'ini hisoblash mexanizmi va byudjetga to'lash tartibini Toshkent viloyati Yangiyo'l tumani misolidagi tahlillarimiz natijasida shunday xulosalar olindi:

1. Iqtisodiy mohiyati jihatidan er solig'i renta tavsifidagi soliqlardan bir hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi hududlarning erlarining tabiiy unumdorlik darajasi, ularning iqtisodiy nuqtai nazardan foydalanishdagi qulayliklariga qarab er solig'i stavkalari tabaqalashtirilgan. Bu holat o'z navbatida er solig'i orqali qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning unumdor erlardan samarali foydalanishlarini tartibga solish vazifasii bajarishini anglatadi.

2. Er solig'ining byudjet daromdaridagi salmog'i umumdavlat soliqlariga nisbatan past darajada bo'lsa-da, mahalliy soliqlar sifatida mahalliy byudjetlar daromadlarida sezilarli salmoqni tashkil etmoqda. Bu holat o'z navbatida er solig'i orqali qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning nafaqat hudud iqtisodiyotida, balki, maalliy byudjetlar daromadlarini shakllantirishda ham ahamiyatini yuqoriligi ko'rsatib beradi.

3. Er solig'i bo'yicha bazaviy stavkalarni indeksatsiya qilinishi natijasida o'sib borishini iqtisodiy jihatdan baholaydigan bo'lsak, qishloq xo'jaligi tovarlari ishlab chiqaruvchilarning er solig'ining stavkasi nisbatan rag'batantiruvchilik vazifasini bajarayotganligini kuzatishimiz mumkin. Xususan, er solig'i bo'yicha yillik o'sish koeffitsienti o'rtacha 1,2 barobarni tashkil etmoqda. Yillik inflyatsiya darajasi esa o'rtacha 6-7 foizni tashkil etadi. Demak soliqlarning o'sish sur'atida yillik inflyatsiya yoki iste'mol narxlari indeksining o'sish sur'atidan past bo'lmoqda.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, fermer xo'jaliklari yagona er solig'ining joriy etilishi shubhasiz, soliqqa tortish jarayonini soddalashtiradi va qishloq xo'jalik korxonasi ishlab chiqarish moliyaviy faoliyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oldindan qilingan taxminiy hisob kitoblar shuni ko'rsatmoqdadagi, ko'pgina xo'jaliklarda yagona er solig'i summasi avvval to'langan summalar atrofida bo'lishi mumkin. Ammo ba'zi xo'jaliklar bo'yicha bu yilgi soliq summasi ko'proq ham bulishi mumkin. Shu sababli yagona er solig'ini joriy etilishi soliq to'lovchilarga berilgan soliq imtiyozlari samaradorligini o'rganish, erlarni kadastrli baholash bo'yicha tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

Shunday qilib, fermer xo'jaliklari tovar ishlab chiqaruvchi korxonalarini soliqqa tortishda yagona er solig'ini joriy etilishi soliq tizimini bir muncha takomillashiga olib keldi. Fermer xo'jaliklariga yagona er solig'ini joriy etilishi soliq samaradorligini oshishiga olib keldi. Buning asosiy sababi hisobotni soddalashtiradi va vaqtdan unumli foydalanishga va xodimlarni ish unumdorligini oshirishga olib keladi.

Mamlakatda amalga oshirilayotgan soliq siyosatini takomillashtirish, mavjud resurslardan, jumladan er resurslardan oqilona, samarali foydalanishni xamda byudjet daromadlarida er solig'i ulushini ko'paytirish maqsadida quyidagi takliflarni berib o'tamiz :

Birinchidan, er qonunchiligida islohotlarni amalga oshirish lozim jumladan, er kodeksini tegishli tartibda ko'rib chiqib, unga qushimchalar kiritish zarur. Masalan, erdan qonun hujjatlarida belgilangan tartiblarga zid ravishda foydalanganlarga tegishli tartibda jazo choralarini kuchaytirish zarur.

Ikkinchidan, soliq idoralariga tegishli tartibda mahalliy soliqlar ob'ektlari hamda fuqarolarning soliq to'lovchilariga nisbatan imtiyozga asos bo'luvchi hujjatarni bevosita taqdim qiluvchi tashkilotlar faoliyatidagi kamchiliklarni tuzatish soliq idoralariga junatilayotgan ma'lumotlarning xaqqoniyligini ta'minlashga erishish. Chunki hozirgi kunda soliq idoralariga tuman ijtimoiy ta'minot bo'limi, tuman mudofaa bo'limlari tomonidan berilayotgan ma'lumotlar o'z vaqtida taqdim etilmaydi. Taqdim etilgan ma'lumotlar xam aniqlik va to'g'rilik etishmaydi.

Uchinchidan, erdan oqilona foydalanish xamda ushbu soliqning mahalliy byudjetlardagi ulushini ko'paytirish maqsadida uy sharoitida erdan resurslardan tadbirkorlik faoliyati sifatida foydalanayotgan fuqarolardan er solig'ini bir necha barobar yuqori stavkada undirish lozim.

To'rtinchidan, yuridik va jismoniy shaxslar tasarrufidagi er maydonlariga nisbatan er solig'i hisoblashda erning o'lchami bilan birgalikda undan olinadigan daromad va xarajatni xam xisobga olish zarur. Chunki er xam yuridik shaxslarda ma'lum ma'noda asosiy vosita xisoblanadi.

Beshinchidan, egallab turgan er maydoni ikki tumanga tegishli sub'ektlarning er solig'ini to'lashda, soliqni ro'yxatdan o'tgan tuman byudjetiga to'lashi, xisobotlarni esa, o'sha tuman soliq idorasiga topshirish hamda ikkinchi tumanga tegishli tartibda ma'lumotnoma olib borishni tashkil qilish kerak. Bu o'z navbatida, bir tashkilotning ikkita soliq idorasi tomonidan tekshirilishi va tekshiruvlar soni ko'payishini oldini oladi.

Oltinchidan, er solig'i stavkalarini xisoblab chiqishda er maydonining joylashuvi, sifati bilan birga etishtiriladigan mahsulot turi va narx o'zgarishi tendentsiyasi e'tiborga olinishi kerak.

birinchidan, er resurslaridan tejamkorlik bilan foydalanish maqsadida, ajratilgan er uchastkalari ishlatilamagan yoki boshqa maqsadlarda ishlatilgan hamda 3 yil va undan ortiq davrda qurilish ishlari tugallanmagan holatlari aniqlangan taqdirda 4-yildan boshlab, soliq summasiga ekvivalent miqdorda 1 koefitsient, 5-yilda 2 koefitsient va shu tartibda soliq summasini o'sib boruvchi tartibini joriy etish maqsadga muvofiq bo'ladi;

ikkinchidan, amaldagi Soliq kodeksiga asosan soliq to'lovchilar to'g'risidagi ma'lumot DSIlarga taqdim etilishi 1 fevral, soliq to'lovchilarga to'lov xabarnomalarini tarqatish muddati 1 maygacha hamda to'lov muddati 15 oktyabrga qadar etib belgilangan sababli soliq idoralariga va soliq to'lovchilarga noqulayliklar yaratmoqda. Shuning uchun to'lov xabarnomasini tarqatish muddatini 1 iyungacha uzaytirish lozim.

Yuqorida qayd etilganlarni inobatga olib quyidagi takliflarni kiritishimiz mumkin:

1.Yagona er solig'i xisoblashning amaldagi tartibiga ko'ra, soliq solishda xo'jalikning ma'lum bir faoliyat turiga ixtisoslashuvi hisobga olinmagan. Bir xil sharoitda joylashgan davlat buyurtmasi asosida paxta, bug'doy va sholi etishtiruvchi xo'jaliklar daromadlari bilan mahsulotlarini bozor narxlarida sotuvchi bog'dorchilik-uzumchilik, sabzobot va polizchilik xo'jaliklari daromadlari keskin fark kilmokda. Davlat soliqlar asosida iqtisodiyotni tartibga solar ekan ushbu tengsizlikni bartaraf etish uchun davlat buyurtmasini bajaruvchi xo'jaliklar mahsulotlari harid bahosini qayta ko'rib chiqishi yoki ixtisoslashuviga karab soliq mikdorini belgilanishi lozim deb hisoblaymiz.

2.Davlat buyurtmasi asosida etkazib berilgan paxta, bugdoy va sholi buyicha xisob – kitoblar, shu jumladan yakuniy xisob – kitob, “maxsus – maqsadli” transhlar orkali amalga oshirilmokda. Bu esa ushbu xo'jaliklar tomonidan maqsadli transhlar kelib tushmagunga kadar xisoblangan soliklarni tulasidan solik

karzdorligiga, bu yuzasidan esa kushimcha ustama summalarini xisoblanishiga olib kelmokda. Bozor sharoiti konunlaridan kelib chikkan xolda etishtirilgan xosil uchun xisob – kitoblarni transhlar asosida maqsadli amalga oshirish tartibini qaytadan ko'rib chiqilishi maqsadga muvofiq bo'lardi.

3.Fermer xo'jaliklarining baholanmagan erlar uchun undiriladigan soliq stavkalarini 61-70 ball boniteti bo'yicha undirish.

4. Bog'dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklarning hisoblangan yagona er solig'i summalarini joriy yilning 1 iyuligacha – hisoblangan soliq summasining 50 foizni, 1 okyatbrigacha – hisoblangan soliq summasining qolgan qismini undirish.

5. Fermer xo'jaliklari qo'shimcha faoliyati ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lsa, ma'lum bir imtiyozlar berish.

6. Fermer xo'jaliklari davlat ro'yxatidan o'tgan kundan emas balki xo'jaliklarga er maydoni ajratib berilgan vaqtdan imtiyozlarni joriy qilish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari

- 1.1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: O'zbekiston, 2008 y. 40 b.
- 1.2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami, 2011 yil.
- 1.3. «Davlat soliq xizmati to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // «Xalq so'zi» gazetasi, 1997 yil 29 avgust.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari va Qarorlari

- 2.1. Mikrofirmalar va kichik korxonalarni rivojlantirishni rag'batlantirish borasidagi qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 20.06.2005 y. PF-3620-son Farmoni.
- 2.2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 18 noyabrdagi «Iqtisodiyot real sektori korxonalarining moliyaviy barqarorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 4053-son Farmoni.
- 2.3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2011 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PP-1449-sonli Qarori (2010 yil 24 dekabr).
- 2.4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2012 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PP-1675-sonli Qarori (2011 yil 30 dekabr).
- 2.5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2013 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida»gi PQ-1887-sonli Qarori (2012 yil 25 dekabr).
- 2.6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2014 йилга асосий макроиктисодий кўрсаткичлари ва Давлат бюджети параметрлари прогнози тўғрисида”ги ПҚ-2099-сонли қарори (2013 yil 25 dekabr).

3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarorlari va boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlar

- 3.1. “Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2004 yil 21 dekabr.
- 3.2. “Bevosita xususiy xorijiy investitsiyalar uchun soliq imtiyozlarini qo'llash tartibi to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2005 yil 3 avgustdagi Qarori. //“Soliqlar va bojxona xabarlari” gazetasi, 2005 yil 5 dekabr, № 49.

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma'ruzalari

- 4.1. Каримов И.А. 2014 йил юқори ўсиш суръатлари билан ривожланиш, барча мавжуд имкониятларни сафарбар этиш, ўзини оклаган ислохотлар стратегиясини изчил давом эттириш йили бўлади» - “Халқ сўзи” газетаси. 2014 йил 18 январь, № 13 (5687).

4.2. Islom Karimov. Bosh maqsadimiz- keng ko‘lamli islohotlar va modernizatsiya yo‘lini qat’iyat bilan davom ettirish. - Toshkent: Xalq so‘zi gazetasi, 2013 yil, 19 yanvar, №13 (5687).

4.3. Islom Karimov. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi. –T.: O‘zbekiston, 2012. – 36 b.

4.4. Karimov I.A. «Biz kelajagimizni o‘z qo‘limiz bilan quramiz». - T.: O‘zbekiston, 1999 y. 46-bet.

4.5. Каримов И.А. Ўзбекистон буюк келажак сари.-Тошкент. Ўзбекистон.-1998 йил.

4.6. Каримов И.А. Бунёдкорлик - фаровон ҳаёт асоси: Уз.Р Олий мажлисининг IV сессиясида сўзланган нутқи. 1995 йил 21 декабр.-Т.: «Ўзбекистон», 1995, 14-бет.

5. Darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va maqolalar to‘plami

5.1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning 2011 yilning asosiy yakunlari va 2012 yilda O‘zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisidagi “2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi” mavzusidagi ma‘ruzasini o‘rganish bo‘yicha o‘quv qo‘llanma. –T.: Iqtisodiyot, 2012. –233 b.

5.2. Vahobov A., Jo‘rayev A. Soliqlar va soliqqa tortish. Darslik. -T.: Sharq, 2009. 448 bet.

5.3. Alimardonov M.I., To‘xsanov Q.N. Soliq nazariyasi. –T.: O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg‘armasi nashriyoti, 2005. - 175 b.

5.4. Дадалко В.А. Налогообложение в системе международных экономических отношений: Учеб. Пособие. /В.А.Дадалко, Е.Е.Румянцева, Н.Н.Демчук. – Мн.: Армита-Маркетинг, Менеджмент, 2000.

5.5. Tuhsanov Q.N. Soliqlar va soliqqa tortish.Ma‘ruzalar matni. Toshkent: TDIU, 2012 y.- 197 b.

5.6. Tuxsanov Q. Soliq tarixi va nazariyasi.Elektron o‘quv-uslubiy majmua. T.: TDIU, 2012 y.

5.7. Кочергов Д.С., Устинова Е.Е. Упрощенная система налогообложения. -М.: Омега, 2006. - 317 с.

5.8. Налоги: Учебное пособие/Под редакцией Д.Г.Черника. 2-е изд., – М.: Финансы и статистика, 1996., с.567.

5.9. Завалишина И.А. Солиқлар: назария ва амалиёт: Ўқув қўлланма. – Т.: Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси нашриёт уйи, 2005. –544 б.

5.10. Яхёев Қ.А. Солиққа тортиш назарияси ва амалиёти: Дарслик. –Т.: Фан ва технологиялар маркази, 2003. – 247 б. Темур тузуклари. Т.: «Чўлпон», 1991 и. 98-бет.

6. Jurnal va gazetalardagi maqolalarga havolalar

6.1. Mamlakatimizni yangilash va modernizatsiya qilish sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda soliq tizimining rolini oshirish

masalalari. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. -T.: TDIU, 2011 yil 14 fevral.

7. Hisobotlar va statistik materiallar

7.1. O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi ma’lumotlari.

7.2. Toshkent viloyati Yangiyo‘l tuman DSI ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

8. Internet sahifalariga havolalar

8.1. <http://www.soliq.uz> – O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasining rasmiy sayti

8.2. <http://www.nalog.ru> – Rossiya Federatsiyasi soliq qo‘mitasining rasmiy sayti

8.3. <http://www.norma.uz> - NORMA- elektron axborot huquqiy tizimi.